V. Y. Uvarova, N. M. Usmanova,
O. Sh. Yevstafeva, G. F. Buzikova

Matematika

4-sinf

I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Yangi nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

UO‘K: 51(075.3)
KBK 22.1ya72
M 31

Taqrizchilar:

T. S. Baluyeva – Toshkent shahridagi 190-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;

K. V. Arutyunova – Toshkent shahridagi 190-umumiy o‘rta ta’lim maktabining I toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



Og‘zaki topshiriq



Yozma topshiriq



Juft bo‘lib ishlang



Mantiqiy topshiriq



Murakkab topshiriq



Uyga vazifa



Dars yakuni

O‘lchov birliklari

uzunlik	kilometr **km**	metr **m**	detsimetr **dm**	santimetr **cm**	millimetr **mm**
massa	tonna **t**	sentner **q**	kilogramm **kg**	gramm **g**	
vaqt	sutka **d**	soat **h**	minut **min**	sekund **s**	

O‘lchov birliklaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo‘llash to‘g‘risida”gi 10.01.2018-yil 21-son qaroriga muvofiq foydalanildi.

ISBN 978-9910-586-88-0

© V. Y. Uvarova va boshq.
© “Novda Edutainment”, 2026


Salom, aziz bolajonlar!

Qo‘lingizdagi 4-sinf matematika darsligida sizni yangi bilimlar, qiziqarli masalalar va ajoyib kashfiyotlar kutmoqda. Siz ko‘p xonali sonlarni o‘rganishni davom ettirasiz, ko‘paytirish va bo‘lishning yangi usullari bilan tanishasiz, murakkab masalalar hamda mantiqiy topshiriqlarni yechishni o‘rganasiz.

Matematika atrofimizdagi olamni tushunishimizga yordam beradi. U hayotimizning barcha sohalarida uchraydi: do‘konlarda, transportda, qurilishda, sportda va hatto o‘yinlarda ham. Sanash, mantiqiy fikrlash va to‘g‘ri yechim topish ko‘nikmalari sizga nafaqat darslarda, balki kundalik hayotda ham kerak bo‘ladi.


Murakkab topshiriqlardan cho‘chimang. Har bir yechilgan masala sizni yanada e’tiborli, topqir va qat’iyatli shaxs bo‘lib yetishishingizga yordam beradi. O‘z kuchingizga ishoning, fikrlang va yechim izlashdan to‘xtamang, shunda, albatta, muvaffaqiyatga erishasiz!

Sizga yangi bilimlar, muvaffaqiyatlar va a’lo yutuqlar tilaymiz!




1-dars. O‘rganilganlarni takrorlash


1. Rasmlarda tasvirlangan **sonlarni** ayting.




a)



b)



d)



2. Sonlarni o‘qing. Ularni **xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi** ko‘rinishida ifodalang. Har bir sonda nechta to‘liq **birlik**, **o‘nlik**, **yuzlik** va **minglik** borligini ayting.

52 647 **23 007** **4 058** **17 849** **9 807** **78 945**

3. Arifmetik amallar **komponentlarini** ayting. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

4 245 – 2 899	123 · 5	7 275 : 5
2 736 + 9 205	548 · 6	8 883 : 7

4. **Noma'lum** sonni toping.

$\square + 125 = 200$	$\square \cdot 27 = 81$	$620 : \square = 62$
$45 : \square = 15$	$\square : 5 = 250$	$17 \cdot \square = 170$

5. Maktab bog'iga har bir qatorga 15 tadan qilib, 6 qator daraxt ekildi. Shundan so'ng ekiladigan yana 134 ta daraxt qoldi. Jami nechta daraxt ekilishi kerak edi?



6. Tenglamalarni yeching.

a) $645 - y = 225 \cdot 2$ b) $y - 426 = 545 : 5$

7. **To'rt xonali** son yozuvida 6 ta yuzlik bor. Birliklar soni yuzliklar sonidan 3 marta kam. O'nliklar soni esa birliklar va yuzliklar sonining yig'indisiga teng. Agar bu sonda 5 ta to'liq minglik bo'lsa, bu qanday son?

8. Tenglamalarni yeching.

a) $183 + y = 250 \cdot 2$ b) $9\,235 - y = 1\,903 - 56$

9. Akmal har biri 45 000 so'mdan 5 ta kitob va har biri 65 000 so'mdan 3 ta bloknot sotib oldi. U xarid uchun necha so'm to'ladi?

	narxi (a)	soni (n)	qiymati (C)	
kitoblar	45 000 so'm	5 ta	? so'm	? so'm
bloknotlar	65 000 so'm	3 ta	? so'm	

2-dars. Qavssiz ifodalarda arifmetik amallarning bajarilish tartibi

1. Sonlarni o‘qing. Har bir sondan **oldin** va **keyin** keladigan sonlarni ayting.

402 001 **473 507** **25 092** **911 009**

15 899 **9 347** **11 999**

2. Taqqoslang.

5 647 ☐ 5 467 + 15 24 605 ☐ 24 506 – 12

1 214 ☐ 1 421 – 24 4 603 ☐ 2 607 + 45

Qavssiz ifodalarda avval ko‘paytirish va bo‘lish amallari chapdan o‘ngga qarab tartib bilan bajariladi. So‘ngra xuddi shu tartibda qo‘shish va ayirish amallari bajariladi.


$$56 - \overset{④}{5 \cdot 2} + \overset{②}{45 : 5} - \overset{⑥}{2 \cdot 3} = 56 - 10 + 9 - 6 = 49$$

3. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) 1 345 + 125 : 5 · 4 – 465 : 3 + 1 274 : 2

b) 46 272 : 3 – 5 295 : 5 + 127 · 3

4. Yoz davomida kutubxonada kitobxonlarga 7 245 ta kitob berildi. Shundan 2 149 tasi ertaklar, 3 059 tasi hayvonlar haqidagi kitoblar. Kitobxonlarga boshqa janrdagi nechta kitob berilgan?



5. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to‘g‘ri hisoblang.

232045 + 167 = 399045	71026 + 5381 = 763107	87520 + 4890 = 81410	9999 + 1111 = 10000

6. **Qo‘shish** va **ayirishning** asosiy xossalarini eslang. Ifodalarning qiymatini qulay usulda hisoblang.

a) 102 + 175 + 398
b) 109 + 27 + 91 + 273
d) (265 + 147) – 165
e) 46 + 178 + 54
f) 12 + 45 + 288 + 155
g) (118 + 486) – 186

7. Tenglamalarni yeching.

a) $563 - y = 95 \cdot 2$
b) $y - (365 : 5) = 245$
d) $1\,845 + y = 2\,250 \cdot 2$
e) $y : 100 = 250 - 169$

8. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) $10\,076 - 345 : 5 \cdot 2 + 999 \cdot 2$
b) $5\,845 : 5 \cdot 4 - 2\,345 \cdot 4 : 10 + 1\,892$

9. **Kitob kuni** munosabati bilan kutubxonachilar ko‘rgazma tashkil etdilar. Ko‘rgazmaga 139 ta ertak kitoblar, ulardan 84 ta ko‘p sayohatlar haqidagi kitoblar va 47 ta ko‘p ensiklopediya kitoblari qo‘yildi. Ko‘rgazmaga jami nechta kitob qo‘yilgan?



Ertak kitoblar – 139 ta k.
Sayohatlar haqidagi kitoblar – ? ta k., 84 ta ko‘p
Ensiklopediya kitoblari – ? ta k., 47 ta ko‘p
→ (?) ta k.

3-dars. Qavssiz ifodalarda arifmetik amallarning bajarilish tartibi

1. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Har bir davlatga mos **valutani** aniqlang.

Argentina	**Daniya**	**Polsha**
17 · 7	31 · 8	24 · 6
		
krona	**peso**	**zlotiy**
221 + 27	131 – 12	160 – 16

2. Valuta kursi deb bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasidagi qiymatiga aytiladi. Bugungi dollar kursi (shartli) – **12 055** so‘m. Ushbu mahsulotlarning narxini so‘mda aniqlang.

soch to‘g‘nag‘ichi	kepka	soch chambaragi	qalamdon
5 $	10 $	7 $	9 $

3. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) 8 756 + 4 945 : 5 – 3 273 b) 7 785 : 3 + 4 205 – 3 402 : 2

4. Tenglamalarni yeching.

a) x – 12 894 = 308 + 457 b) y · 9 = 42 501 + 40 506

5. Fleshka 17 dollar turadi. Uni Toshkentga yetkazib berish narxi 3 dollar. Agar dollar kursi 12 055 so‘m bo‘lsa, jami necha so‘m to‘lash kerak?

6. a va b sonlari berilgan. Agar $a = 126$, $b = 9$ bo‘lsa, ularning yig‘indisi, ayirmasi, ko‘paytmasi va bo‘linmasini yozing hamda qiymatini hisoblang.

7. Agar uchburchakning bir tomoni 6 metr, ikkinchi tomoni 7 metr, uchinchi tomoni esa birinchi tomonidan 2 marta uzun bo‘lsa, shu **uchburchakning perimetrini** toping.

8. Madinaning 8 ta qo‘g‘irchog‘i bor. Agar unga yana 4 ta qo‘g‘irchoq sovg‘a qilishsa, uning qo‘g‘irchoqlari Visolanikidan 5 ta ko‘p bo‘ladi. Visolaning nechta qo‘g‘irchog‘i bor?



9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va bu yerda qanday **pul birligi** yashiringanini bilib oling. Ular qaysi davlatda qo‘llaniladi?

A	280 · 400	R	146 · 500
I	300 · 190	S	169 · 700
T	475 · 2 000	U	225 · 200
P	837 · 60	Y	731 · 100



73 000	45 000	50 220	57 000	73 100	112 000

50 220	112 000	73 100	118 300	112 000

10. Azizaning kolleksiyasida 235 ta Afrika tangasi, Afrika tangalaridan 2 marta ko‘p Amerika tangalari va Amerika tangalaridan 270 ta kam Yevropa tangalari bor. Azizaning kolleksiyasida jami nechta tanga bor?



4-dars. Qavsli ifodalarda arifmetik amallarning bajarilish tartibi

1. Ko‘paytirishni **qulay usulda** bajaring. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va O‘zbekistondagi mashhur sayyohlik shaharlaridan birining nomini toping.

O) $6 \cdot 5 \cdot 700$	R) $6 \cdot 5 \cdot 5$	S) $90 \cdot 4 \cdot 5$
B) $4 \cdot 5 \cdot 17$	X) $7 \cdot 4 \cdot 25$	U) $11 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 25$

340	1 100	700	21 000	150	21 000

2. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) $721\,000 - 3\,809 \cdot 9 + 9\,824$ b) $6\,806 \cdot 7 + 85\,403 \cdot 8 - 39\,845$

Qavsli ifodalarda avval qavs ichidagi amallar bajariladi. Keyin chapdan o‘ngga qarab tartib bilan ko‘paytirish va bo‘lish, so‘ngra esa xuddi shu tartibda qo‘shish va ayirish amallari bajariladi.

$$\underset{21}{\underbrace{(25-4)}} : 7 + 5 \cdot \underset{9}{\underbrace{(12-3)}} = \underset{3}{\underbrace{21:7}} + \underset{45}{\underbrace{5 \cdot 9}} = 3 + 45 = 48$$

(①) (③) (⑤) (④) (②)

3. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $45\,302 + (442 : 2 + 503) - 7 \cdot (999 - 845)$

b) $2\,403 : 3 + (145 : 5 - 9) - (495 : 5 - 13)$

4. Sayyoh muzlatkich uchun har biri 18 000 so‘mdan 6 ta magnit va har biri 23 000 so‘mdan 4 ta haykalcha sotib oldi.

a) U xarid uchun necha so‘m to‘ladi?

b) Agar sayyohda 500 000 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, uning qancha puli qoldi?

5. Jadvallarni to‘ldiring.

ko‘paytuvchi	70	?	9	90	30	5
ko‘paytuvchi	3	8	?	4	?	50
ko‘paytma	?	400	630	?	900	?

bo‘linuvchi	630	560	?	720	100	360
bo‘luvchi	90	?	800	?	?	360
bo‘linma	?	8	3	90	100	?

6. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Yozda tog‘dagi sanatoriylarda 36 072 nafar, shahardagi sanatoriylarda esa undan 3 marta kam sayyoh dam oldi. Yozda sanatoriylarda jami necha nafar sayyoh dam olgan?



b) Sayyoh tog‘da 3 hafta, ko‘l bo‘yida esa undan 4 kun kam dam oldi. U jami necha kun dam olgan?

7. Sayyohlar guruhida 100 nafar sayyoh bor. Ulardan 35 nafari nemis tilini, 30 nafari fransuz tilini, 41 nafari esa ingliz tilini biladi. Sayyohlardan 8 nafari ingliz va fransuz tillarini, 6 nafari nemis va ingliz tillarini, 4 nafari esa fransuz va nemis tillarini biladi. **2 nafari** uchala tilni ham biladi. Necha nafar sayyoh bu tillarning birortasini ham bilmaydi?

8. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $(1\,245 : 5 + 48) + 5 \cdot (452 : 2 - 3)$

b) $235 \cdot 7 + (420 : 5 - 49) - (426 + 130) : 2$

9. Masala tuzing va uni yeching.

Inglizlar – 85 792 nafar

Xitoyliklar – ? nafar, 17 038 nafar ko‘p

Rossiyaliklar – ? nafar, 3 marta ko‘p

? nafar

5-dars. Qavsli ifodalarda arifmetik amallarning bajarilish tartibi

1. Taqqoslang.

$69 + a \square 96 + a$ $\quad a \cdot 35 \square 35 \cdot a$ $\quad 725 + x \square x + 725$


$425 : b \square 525 : b$ $\quad b : 45 \square b : 23$ $\quad y - 75 \square y - 57$

2. Ifodalarning qiymatini **amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.

a) $703 \cdot 8 - 312 + 6 \cdot (560 - 45) : 5$


b) $9\,245 - 527 + (274 - 124) : 5 \cdot 2$

3. Shakllarning yuzlarini chamalab taqqoslang. Qaysi shaklning yuzi eng katta?



4. Agar to‘g‘ri to‘rtburchakning uzunligi 7 metr, eni esa undan 2 metr qisqa bo‘lsa, uning **perimetri** va **yuzini** toping.

5. Samarqand va Nukusdan bir-biriga qarab ikki poyezd yo‘lga chiqdi. Ular uchrashguncha birinchi poyezd 231 km, ikkinchi poyezd esa undan 2 marta ko‘p yo‘l bosdi. Shaharlar orasidagi masofa qancha?



6. **Eng kichik o‘lchov birligiga** aylantiring va taqqoslang.

5 km 12 m ☐ 12 m 6 dm $\quad$ 2 km 7 dm ☐ 31 m 8 dm

4 m 5 cm ☐ 62 dm 3 cm $\quad$ 6 km 13 m ☐ 5 km 17 dm

7. **Qoldiqli bo‘lishni** bajaring.

59 : 16	98 : 15	149 : 37	83 : 5
97 : 23	62 : 21	286 : 81	123 : 7

8. Geometrik shakllar ortiga yashiringan **sonlarni** toping.

a) ▲ + ■ = 120
■ + ● = 230
▲ + 230 = 300

b) ▲ + ● = 60
■ – ● = 90
100 – ▲ = 80

9. O‘zbek naqshini bezash uchun birinchi kun 2 700 ta, ikkinchi kun esa undan 1 800 ta kam rangli koshin tayyorlandi. Birinchi kun ikkinchi kundagidan necha marta ko‘p koshin tayyorlangan?



I – 2 700 ta kosh.
II – ? ta kosh., 1800 ta kam ⟵ ? marta kōp

10. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 567 : 3 · 2 – (283 – 55 · 4) + 112 · 5

b) 295 : 5 + 6 422 – (432 : 3 + 123)

11. To‘g‘ri to‘rtburchakning eni 9 cm, bo‘yi esa undan 3 marta uzun. Shu to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzini toping.

6-dars. Misol va masalalar yechish

1. Ifodalang:

a) **minutlarda**: 3 h, 6 h, 9 h, 10 h;

b) **sekundlarda**: 2 min, 4 min, 6 min, 8 min;

d) **soatlarda**: 1 d 5 h, 2 d 3 h, 5 d, 10 d.



2. Ustun ko‘rinishida hisoblang.

357 · 8	2 583 · 9	29 370 · 6
429 · 7	4 245 · 5	72 803 · 4

3. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 1 576 · 7 + 2 070 · 8 – 12 346

b) 9 148 + 2 785 : 5 – 1 346

d) 13 824 + (7 839 : 9 – 45) – 2 346

e) 40 040 – 32 768 : 8 + (182 : 2 + 45)

4. Tenglamalarni yeching.

a) $y + 20 + 60 = 320$ b) $a + 15 \cdot 10 = 300$

5. Bog‘ga 1 200 ta gul ekildi. Shundan 950 tasi atirgul, qolganlari esa moychechak. Moychechaklar har bir gulpushtiga 25 tadan ekildi. Nechta gulpushti hosil bo‘ldi?



Atirgullar – 950 ta
Moychechaklar – ? ta, ? gulpushtiga 25 tadan } 1200 ta

6. Masalalarga doir **ifodalar** yozing. Ularning qiymatini qanday qulay usulda hisoblash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

a) Bozorda shaftoli uchun 68 000 so‘m, uzum uchun 39 000 so‘m, olma uchun esa 32 000 so‘m to‘landi. Mevalar uchun jami necha so‘m to‘landi?

b) Mol go‘shti uchun 230 000 so‘m, tovuq go‘shti uchun 190 000 so‘m to‘lash kerak edi. Sotuvchi 30 000 so‘m chegirma qildi. Xaridor necha so‘m to‘ladi?


d) Onaning hamyonida 900 000 so‘m bor edi. Avval u 165 000 so‘mga futbolka, so‘ng 135 000 so‘mga shim sotib oldi. Onaning hamyonida qancha pul qoldi?


7. Quyidagi mahsulotlarning narxlariga qarab, har bir xaridning **umumiy qiymatini** aniqlang.



1 kg mol go‘shti
158 000 so‘m


1 kg sabzi
5 000 so‘m


1 l yog‘
24 000 so‘m


1 kg kartoshka
8 000 so‘m


10 ta tuxum
15 000 so‘m


1 kg piyoz
7 000 so‘m


a) 
3 kg mol go‘shti
5 kg kartoshka
2 l yog‘

b) 
2 kg piyoz
30 ta tuxum
3 kg sabzi

8. Tenglamalarni yeching.

a) $x + 427 = 900 - 45$ b) $y - 327 = 265 : 5$


9. Oralaridagi masofa 846 km bo‘lgan ikki shahardan bir-biriga qarab ikki poyezd yo‘lga chiqdi. Agar ulardan biri 324 km, ikkinchisi esa 286 km yo‘l bosgan bo‘lsa, poyezdlar orasida qancha masofa qoladi?




7-dars. Misol va masalalar yechish

1. Har bir to‘g‘ri to‘rtburchakning **perimetrini** toping, agar:


a) yuzi 36 cm², bo‘yi 9 cm bo‘lsa;





b) yuzi 54 cm², eni 6 cm bo‘lsa.



2. Tushirib qoldirilgan raqamlarni toping.










3. Tenglamalarni yeching. **Noma’lum komponentlarni** ayting.

a) $a - 320 = 90$ b) $b : 40 = 300$ d) $720 + y = 900$

4. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to‘g‘ri hisoblang.







5. Ifodalang:

a) **sentnerlarda**: 2 t, 7 t, 54 t, 115 t, 2 500 kg, 7 000 kg, 17 800 kg;

b) **tonnalarda**: 80 q, 500 q, 1 300 q, 4 000 kg, 15 000 kg, 60 000 kg.

6. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang. Nimani sezdingiz?

a) 50 103 – (35 073 : 9 + 2 845) + 123 · 2

b) (50 103 – 35 073) : 9 + 2 845 + 123 · 2

7. 7 ta yuk mashinasida 14 t 7 q don tashildi. Shunday 9 ta yuk mashinasida necha sentner don tashiladi?



7 ta mash. – 14 t 7 q

9 ta mash. – ? q



– ? q

8. 3 ta bir xil yuk mashinasida 240 yashik olma tashildi. 400 yashik olmani tashish uchun nechta shunday yuk mashinasi kerak bo‘ladi?



9. Tenglamalarni yeching.


a) (90 – x) · 10 = 480

b) 620 : (a + 24) = 10

10. Ota bozordan narxi 78 000 so‘mdan 2 kg go‘sht, narxi 14 000 so‘mdan 5 kg guruch va narxi 17 000 so‘mdan 7 kg shakar sotib oldi. Agar otada 900 000 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, uning qancha puli qoldi?

8-dars. Ko‘p xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirish

1. Shoxchalardan yig‘indisi **yaxlit son** bo‘ladigan **juftliklarni** toping.



2. Hisoblashda yo‘l qo‘yilgan **xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to‘g‘ri hisoblang.

$8056 \times 8 = 16408$	$9320 \times 8 = 72568$	$4025 \times 7 = 29175$	$2708 \times 3 = 8104$

3. Rasmga qarang. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi qanday topilganini tushuntiring.



$S_{▭} = a \cdot (b + c)$ yoki

$S_{▭} = a \cdot b + a \cdot c$, demak,

$a \cdot (b + c) = a \cdot b + a \cdot c$

ko‘paytirishning taqsimot xossasi

4. **Ko‘paytirishning taqsimot xossasi** yordamida ko‘paytmalarni namuna bo‘yicha hisoblang.

$45 \cdot 67 = 45 \cdot (60 + 7) = (45 \cdot 60) + (45 \cdot 7) = 2\,700 + 315 = 3\,015$

$36 \cdot 45$	$73 \cdot 24$	$81 \cdot 19$
$93 \cdot 74$	$62 \cdot 23$	$76 \cdot 34$

Ko‘p xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirish uchun ikki xonali son o‘nlik va birliklar yig‘indisiga ajratiladi. So‘ng ko‘p xonali son ularning har biriga alohida ko‘paytiriladi va hosil bo‘lgan natijalar qo‘shiladi.

$$276 \cdot 39 = 276 \cdot (30 + 9) = 276 \cdot 30 + 276 \cdot 9 = 8\,280 + 2\,484 = 10\,764$$

5. **Ko‘paytirishning taqsimot xossasidan** foydalanib, ifodalarning qiymatini hisoblang.

$249 \cdot 54$ $329 \cdot 45$ $485 \cdot 62$ $535 \cdot 34$

6. Mashina 12 soat davomida 68 km/h tezlikda harakatlandi. Agar u xuddi shu tezlikda 15 soat harakatlansa, necha kilometr ko‘p yo‘l bosadi?

7. **80** sonining **bo‘luvchilarini** ayting.

1 0 3 15 25 5 40 23

8. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $26\,483 + 26 \cdot 45 - 18 \cdot 34$ b) $98\,485 - 12 \cdot 35 - 48 \cdot 23$

9. Madina 12 kun davomida har kuni 25 tadan, Safi esa shuncha kun davomida har kuni 36 tadan misol yechdi. Qizlar jami nechta misol yechishgan?

	1 kunda yechilgan misollar soni	kunlar soni	jami yechilgan misollar soni	
Madina	25 ta misol	12 kun	? ta misol	? ta misol
Safi	36 ta misol	12 kun	? ta misol	

9-dars. Ikki xonali songa ko‘paytirish algoritmi

1. Berilgan sonlar ichiga **25** soni necha marta joylashishini aniqlang.


100 75 200 175 125 50 150 225

2. Taqqoslang.

$a + 245 \square 255 + a$
$d \cdot 235 \square 225 \cdot d$
$b - 409 \square b - 490$
$480 : k \square 720 : k$
$m : 56 \square m : 66$
$860 - c \square 960 - c$

Ikki xonali songa ko‘paytirish algoritmi


1. Ko‘paytuvchilar birliklar birliklar tagiga, o‘nliklar esa o‘nliklar tagiga tushadigan qilib yoziladi.
2. Birinchi to‘liqsiz ko‘paytma topiladi: **326 · 5 = 1 630 birl.**
3. O‘nliklarga o‘tiladi va ikkinchi to‘liqsiz ko‘paytma topiladi: **326 · 3 = 978 o‘nl.**
4. To‘liqsiz ko‘paytmalar qo‘shiladi.
5. Javob o‘qiladi.



3. Ustun ko‘rinishida hisoblang.

a) 456 · 24
b) 345 · 36
d) 234 · 18
e) 483 · 73
f) 348 · 25
g) 481 · 12

4. Akmal geometrik masalani yechdi. Ushbu namunaga tayangan holda topshiriqni bajaring.
Bog‘ **kvadrat** shaklida bo‘lib, uning perimetri 640 m. Shu bog‘ning yuzini toping.



5. Sayyohlar birinchi kun 50 km, ikkinchi kun birinchi kundagidan 13 km kam, uchinchi kun esa ikkinchi kundagidan 7 km ko‘p yo‘l bosishdi. Agar ular 1 km yo‘lni 10 minutda bosib o‘tishgan bo‘lsa, jami qancha vaqt yo‘l yurishgan?




6. **Ifodalarni** yozing va ularning qiymatini **ikki usulda** hisoblang.

a) Uzunligi 100 m bo‘lgan arqondan alpinistlar uchun biri 30 m, ikkinchisi 40 m bo‘lgan ikki bo‘lak kesib olindi. Necha metr arqon qoldi?

b) Alpinistlar uzunligi 132 km bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tishni rejalashtirishdi. Ular birinchi kun 35 km, ikkinchi kun esa 45 km yo‘l bosishdi. Alpinistlar yana necha kilometr yo‘l bosishlari kerak?

7. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to‘g‘ri hisoblang.



8. Ustun ko‘rinishida hisoblang.

472 · 45	563 · 57	428 · 83
236 · 92	349 · 39	675 · 67

9. Vazira har biri 16 000 so‘mdan 25 ta bloknot va har biri 8 000 so‘mdan 54 ta ruchka sotib oldi. U xarid uchun jami necha so‘m to‘lagan? Bloknotlarga ruchkalarga qaraganda necha so‘m kam to‘lagan?

	narxi (a)	miqdori (n)	qiymati (C)
bloknotlar	16 000 so‘m	25 ta	? so‘m
ruchkalar	8 000 so‘m	54 ta	? so‘m

? so‘m — ? so‘m kam

10-dars. Ikki xonali songa ko‘paytirish

1. Tushirib qoldirilgan sonlarni toping.

ko‘paytuvchi	80	?	40	?	?	30	?
ko‘paytuvchi	12	7	?	70	15	?	60
ko‘paytma	?	840	560	490	150	2 100	420

bo‘linuvchi	96	?	160	?	750	5 600	?
bo‘luvchi	6	11	?	5	15	70	40
bo‘linma	?	9	8	400	?	?	90

2. Ifodalarning qiymatini **ko‘paytirishning taqsimot xossasidan** foydalanib hisoblang.

a) $97 \cdot 65$
b) $43 \cdot 11$
d) $136 \cdot 52$
e) $906 \cdot 15$
f) $285 \cdot 23$
g) $307 \cdot 41$

3. Tenglamalarni yeching.

a) $a + 2\,245 = 326 \cdot 18$
b) $a : 13 + 47 = 372$

4. **Ifodalarni** yozing va ularning qiymatini **qulay usulda** hisoblang.

a) 319, 975 va 181 sonlarini qo‘shish.
b) 983 sonidan 168 va 183 sonlari yig‘indisini ayirish.
d) 378 va 167 sonlari yig‘indisidan 268 sonini ayirish.
e) 42 sonini 256 va 144 sonlari yig‘indisiga ko‘paytirish.

5. Ifodalarning qiymatini **hisoblamasdan**, ularni taqqoslang.

a) $384 \cdot 25 \square 384 \cdot 23$
b) $624 \cdot 36 \square 642 \cdot 36$
d) $972 \cdot 25 \square 729 \cdot 25$
e) $945 \cdot 74 \square 945 \cdot 47$

6. Sayyohlik bazasida chodirlarda ham, kottejlarda ham yashash mumkin. Rasmga qarab sayyohlar haqida masala tuzing va uni yeching.

			jami
avgustda	280	170	?
sentabrda	?, 8 marta kam	?, 2 marta kam	?

7. Masalalarga doir **ifodalar** tuzing.

a) Mansur x yoshda, Sardor esa undan 6 yosh katta. Sardor Mansurdan necha marta katta?

b) Buvi a yoshda, nabirasi esa undan 5 marta kichik. Buvi nabirasidan necha yosh katta?

d) Sevara, Diyora va Azizaning jami yoshi y yosh. Sevara n yoshda, Diyora esa Sevaradan 2 marta kichik. Aziza necha yoshda?

8. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi yer maydonining **yuzini** berilgan o‘lchamlar bo‘yicha toping. Bu masalani necha xil usulda yechish mumkin?



9. Ifodalarning qiymatini toping.

a) $12\,348 - 127 \cdot 45 + 25 \cdot (983 - 485)$

b) $44\,245 + 9\,365 : 5 \cdot 24 - 55\,205$

10. Ikki kunda bog‘ga 800 nafar kattalar va 1 200 nafar bolalar tashrif buyurishdi. Agar har kuni bog‘ga tashrif buyuruvchilar soni bir xil bo‘lsa, 7 kunda bog‘ga jami necha kishi tashrif buyuradi?



11-dars. Uch xonali songa ko‘paytirish algoritmi

1. **Sonlarni** o‘qing. Ularni **xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi** ko‘rinishida yozing.


12 327 | 145 275 | 45 808 | 76 584

2. Ifodaning qiymatini hisoblang.


549 781 – (283 · 37) + (325 · 62) : 5

Uch xonali songa ko‘paytirish qanday bajarilganini tushuntiring.

$$245 \cdot 275 = 245 \cdot (200 + 70 + 5) =$$
$$= \underbrace{245 \cdot 200}_{49\,000} + \underbrace{245 \cdot 70}_{17\,150} + \underbrace{245 \cdot 5}_{1\,225} = 67\,375$$



Har qanday sonni uch xonali songa ko‘paytirish ikki xonali songa ko‘paytirish kabi bajariladi: avval son uch xonali sonning birliklariga, so‘ng o‘nliklariga, oxirida esa yuzliklariga ko‘paytiriladi. So‘ng hosil bo‘lgan ko‘paytmalar qo‘shiladi. Bunda hosil bo‘lgan 2 275 birlik birliklar tagiga, 975 o‘nlik o‘nliklar tagiga, 2 925 yuzlik esa yuzliklar tagiga yoziladi.



3. Ko‘paytirishni **sharhlab, ustun shaklida** bajaring.

493 · 237	692 · 287	236 · 124
896 · 356	715 · 428	345 · 217

4. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

a) 63 dm – 15 cm ☐ 8 m 35 dm – 6 m 25 cm

b) 15 m 8 dm + 13 dm 6 cm ☐ 9 m 6 dm – 3 m 6 cm

d) 21 dm 6 mm – 12 cm 8 mm ☐ 16 cm 5 mm + 8 dm

e) 3 km 14 m – 22 m ☐ 15 km 6 m – 11 km 25 m

5. Birinchi kun do‘konda har biri 11 600 so‘mdan 64 o‘ram gazlama sotildi, ikkinchi kun esa shunday gazlamadan 15 o‘ram kam sotildi. Do‘kon gazlama sotishdan birinchi kun ikkinchi kundagidan necha so‘m ko‘p tushum olgan?



6. Botanika bog‘ida lola, za’faron va sunbul yetishtiriladi. Jami nechta piyozbosh ekilgan?



sunbul

846 ta piyozbosh



za’faron

? ta piyozbosh, sunbullarga qaraganda 318 ta ko‘p



lolalar

? ta piyozbosh, za’faronlarga qaraganda 4 marta kam

(?) ta piyozbosh

7. Tenglamalarni yeching.

a) $4\,640 : x + 18\,290 = 9\,806 + 8\,564$

b) $81 \cdot y - 267 = 13\,299 - 7\,896$

8. Botanika bog‘ida turli o‘simliklarning 30 460 ta urug‘idan iborat kolleksiya saqlanadi. Shundan 5 580 tasi noyob o‘simliklar urug‘i, madaniy o‘simliklar urug‘i esa ulardan 4 marta ko‘p, qolganlari xorijiy o‘simliklar urug‘i. Kolleksiyada nechta xorijiy o‘simlik urug‘i bor?

12-dars. Uch xonali songa ko‘paytirish.


1. Tenglamalarni yeching. Javoblarni **kamayish** tartibida joylashtiring va mos harflardan so‘z tuzing. Bu so‘z haqida nimalarni bilasiz?

H) $x : 60 = 9$ S) $3 \cdot y = 450$ O) $x : 2 = 120$


I) $330 : y = 3$ L) $a \cdot 7 = 420$

2. **Sxemalar** bo‘yicha tenglamalar tuzing va ularni yeching.

a)



b)



3. Ifodalarning qiymatini **sharhlab** hisoblang va ularni **taqqoslang**.

a) $587 \cdot 324 \square 945 \cdot 135$
b) $329 \cdot 276 \square 478 \cdot 158$
d) $128 \cdot 621 \square 273 \cdot 354$
e) $482 \cdot 235 \square 345 \cdot 274$


4. Ikki qavatli sayyohlik avtobusida Yaponiya va Xitoydan kelgan sayyohlar ketmoqda. Jadvaldan foydalanib, avtobusdagi jami sayyohlar sonini aniqlang.




	I qavat	II qavat
yaponlar	8 nafar ←	? nafar, 8 nafar ko‘p →
xitoyliklar	? nafar, 5 marta ko‘p →	17 nafar ←
jami	(?) nafar	

5. Ifodalarning qiymatini hisoblang.


a) 6 h 23 min 32 s + 7 h 19 min 54 s
b) 8 h 17 min 5 s – 3 h 28 min 46 s
d) (6 d 23 h + 3 d 16 h) : 5
e) (6 d 7 h – 2 d 13 h) · 4




6. Katakli qog‘ozga berilgan shaklning andazasini chizing. Shaklni uchta bir xil qismga qanday ajratish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.



7. Shakllarning **bo‘yalgan** qismlari yuzini toping.





8. Tabiat muzeyiga sayohatga ikkinchi va uchinchi sinf o‘quvchilari borishdi. Ikkinchi sinf o‘quvchilari har birida 40 nafardan bo‘lgan 3 ta avtobusda, uchinchi sinf o‘quvchilari esa har birida 30 nafardan bo‘lgan 5 ta avtobusda borishdi. Jami necha nafar o‘quvchi sayohatga borgan?

	1 ta avtobusdagi o‘quvchilar soni	avtobuslar soni	jami o‘quvchilar soni
2-sinf	40 nafar	3 ta	? nafar
3-sinf	30 nafar	5 ta	? nafar

? nafar

9. Tenglamalarni yeching.

a) $(7\,521 + x) \cdot 24 : 20 = 9\,438$

b) $600\,000 - 780 \cdot (300 - y) = 486\,120$


13–14-darslar. 1-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash

15-dars. Misol va masalalar yechish

1. Har bir qadoqning tagida undagi konfetlar, yong‘oqlar yoki pecheniylar soni yozilgan. Qaysi qadoqdagi mahsulotlarni ikki kishiga teng taqsimlash mumkin? Uch kishiga-chi? To‘rt kishiga-chi? Besh kishiga-chi? To‘qqiz kishiga-chi?


264 ta


315 ta


72 ta


96 ta


126 ta

2. Jadvallar asosida masalalar tuzing. Noma’lum kattaliklarni toping.

tezlik *(v)*	vaqt *(t)*	masofa *(S)*
18 km/h	? h	(126 + 162) km

narxi *(a)*	miqdori *(n)*	qiymati *(C)*
? so‘m / ta	(14 + 57) ta	2 485 so‘m

unumdorlik *(v)*	vaqt *(t)*	ish *(A)*
(13 + 18) ta / h	8 h	? ta

3. **[12, 18, 20, 25, 45, 198, 270, 420, 300]** natural sonlar to‘plamidan quyidagilarni tanlang:

a) 6 ga karrali sonlar;
b) 900 sonining bo‘luvchilari;
d) 5 ga karrali sonlar;
e) 600 sonining bo‘luvchilari.

4. Tenglamalarni yeching.

a) $125 \cdot 4 \cdot x + 396 = 396$
b) $30 \cdot 40 - 60 \cdot 20 + x = 112$

5. Beshta yuk mashinasiga jami 11 310 kg pomidor yuklangan. Birinchi yuk mashinasiga 2 200 kg, ikkinchisiga birinchisidagidan 2 marta ko‘p, qolgan uchta yuk mashinasiga esa teng miqdorda pomidor yuklangan. Beshinchi yuk mashinasiga necha kilogramm pomidor yuklangan?

6. Ifodalarning qiymatini **amallarning to‘g‘ri tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang. Javoblarga mos harflarni shu tartibda joylashtiring va o‘zbek xalq raqslari nomlarini aniqlang.

a) $(61 \cdot 390 - 4 \cdot (8\,762 - 2\,900)) \cdot (1\,296 : 4 - 184)$

A) 140	V) 324	N) 23 448	R) 47 880
A) 23 790	L) 12 730	O) 342	T) 5 862

b) $(8\,308 - 17 \cdot (8\,562 - 8\,327)) \cdot 9 + 54\,600 : 6$

A) 3 995	K) 36 558	N) 47 917	R) 4 313
Z) 38 817	L) 235	O) 9 100	T) 12 125

7. Masalalarga doir **ifodalar** tuzing.

a) “Andijon polkasi” raqsini ***n*** nafar katta raqqos ijro etdi. Ular bilan birga ***m*** nafar qiz va ulardan 2 marta kam o‘g‘il bola raqsga tushdi. Jami necha kishi raqsga tushgan?

b) Xalq raqslari haqidagi videorolikni dushanba kuni ***t*** nafar tomoshabin, seshanba kuni esa undan ***k*** nafar kam tomoshabin ko‘rdi. Agar videorolikni 3 kunda jami 13 445 kishi ko‘rgan bo‘lsa, uni chorshanba kuni necha kishi ko‘rgan?

8. **Teng yonli** uchburchakning perimetri 18 cm, tomonlaridan birining uzunligi 8 cm. Qolgan tomonlarining uzunliklarini toping.

9. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 7 h 45 min 18 s + 4 h 19 min 48 s
b) 6 h 5 min 21 s – 4 h 37 min 52 s
d) (2 d 15 h + 4 d 17 h) : 4
e) (9 d 2 h – 5 d 4 h) · 3

10. Texnologiya darslari uchun har biri 55 000 so‘mdan 10 qadoq karton va har biri 60 000 so‘mdan 7 qadoq rangli qog‘oz sotib olindi. Karton uchun rangli qog‘ozga qaraganda necha so‘m ko‘p to‘langan?


16-dars. Misol va masalalar yechish

1. Ifodalarning qiymatini hisoblang va javoblarga ko‘ra har bir sandiqdagi tangalar soniga mos ifodani ko‘rsating.

3 003 : 3	305 · 5	275 + 1 600
240 : 6	12 720 – 520	2 020 : 2



Ko‘p xonali sonni o‘rtasida 0 raqami bo‘lgan songa ko‘paytirishda, 0 ga ko‘paytirish natijasida hosil bo‘ladigan qator yozilmaydi va keyingi xonaga ko‘paytirishga o‘tiladi.



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 738 · 203 d) 802 · 379 f) 679 · 203
b) 154 · 207 e) 607 · 530 g) 343 · 304

3. Bitta olmaning massasi qancha? Bitta nokning massasi-chi? Qaysi birining massasi katta va necha gramm katta?



4. Tenglamalarni yeching. Qaysi ildiz **9 ga** bo‘linadi?

a) $(76\,000 - 8 \cdot x) : 4 = 17\,866$ b) $(y : 17 + 419) \cdot 9 = 4\,230$

5. Yoz davomida ona shaftolidan 12 litr, gilosdan esa undan 3 marta ko‘p murabbo tayyorladi. Bundan tashqari, u 14 banka qovoqcha ikrasi ham tayyorladi. Barcha murabboni hajmi 500 ml bo‘lgan bankalarga quydi. Jami nechta banka bo‘ldi? (**Yodda tuting! 1 l = 1000 ml**)



6. Jasurning **olti xonali** kodli qulfi bor. U qulf uchun shunday kod o‘ylab topdiki, istalgan ketma-ket uchta raqamning yig‘indisi 20 ga teng. Jasur kodning faqat birinchi va oxirgi raqamini eslaydi. Unga qulf kodini eslashga yordam bering.

7	*	*	*	*	9



7. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $565 \cdot 234 - 483 \cdot 145 + 25 \cdot (1\,236 - 989)$

b) $523 \cdot 485 - 27 \cdot 45 + (1\,275 - 995) : 5$

8. Beshta tuyada 1 t 375 kg yuk keltirildi. Avval 3 q 25 kg, so‘ng 4 q 73 kg yuk tushirildi. Yana necha kilogramm yukni tushirish kerak?



17-dars. Bo‘luvchilar va karralilar

1. Har bir qatordagi **ortiqcha sonni** toping.

a) 346 234 562 435 898


b) 8 008 4 444 3 072 5 542

- Bu qatorlardagi sonlarda qanday umumiylik bor?
- Ular nimasi bilan farq qiladi?

2. **24** sonining **bo‘luvchilari** to‘plamini toping:

2 5 12 24 9 4 1 8 15 6 7

Bo‘luvchi – bo‘linuvchi qoldiqsiz bo‘linadigan son.



Karrali son – bo‘luvchiga qoldiqsiz bo‘linadigan bo‘linuvchi.

- **5 ga karrali sonlar [5, 10, 15, 20, 25, ...]**
- **20 sonining bo‘luvchilari [1, 2, 4, 5, 10, 20]**

3. **15 ga karrali** sonlarni ayting: 45 60 25 30 50

4. Berilgan sonlarning **bo‘luvchilarini** ayting: 45 56 32 100 88

5. Tasdiqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshiring.

a) $8\,790 \cdot 34 - 126\,000 : 210 \cdot 100$ son $(72 - 67) \cdot 12$ **ga karrali;**

b) $(1\,760 - 1\,280) : 24$ son $(76\,000 + 35\,000) : (1\,830 + 1\,870)$ sonining **bo‘luvchisi** bo‘ladi.

6. Savollarga javob bering.

a) **12** sonining qanday **bo‘luvchilari** bor?
b) **15** sonining nechta **bo‘luvchisi** bor?
d) Qaysi son **har qanday natural sonning bo‘luvchisi** bo‘lishi mumkin?

7. Ikki yil avval bolalar oromgohlarida 697 340 nafar bola dam oldi. O‘tgan yili esa ikki yil avvalgiga qaraganda 238 450 nafar ko‘p bola dam oldi. Bu yil o‘tgan yili dam olgan bolalardan ikki baravar kam bola dam oldi. Bu yil oromgohlarda necha nafar bola dam olgan?



8. Tenglamalarni yeching.

a) $16\,000 + 45\,000 : y = 19\,000$ b) $32\,800 : (1\,800 - x) = 410$

9. Uch nafar baliqchi 18 ta baliq tutib, baliq sho‘rva pishirmoqchi bo‘ldi. Birinchisi sho‘rva uchun 1 ta, ikkinchisi 3 ta, uchinchisi esa 5 ta baliq berdi. Shundan so‘ng ularning har birida teng miqdorda baliq qoldi. Har bir baliqchi nechtadan baliq tutgan?



10. Tenglamalarni yeching. Qaysi ildiz **10 ga** bo‘linadi?

a) $2\,365 + x \cdot 8 = 8\,000 - 3\,635$
b) $78\,000 : y + 2\,805 = 3\,127 + 1\,678$

11. **Daryo oqimining tezligi** uning turli qismlarida **turlicha** bo‘ladi. Tog‘li hududda sol 9 soatda 45 km, tekislikda esa xuddi shu vaqtda 27 km suzib o‘tdi. Tekislikda daryo oqimining tezligi qanchaga kamaygan?

18-dars. 5 ga va 10 ga bo‘linish alomatlari


1. **5 ga** karrali sonlarni ayting.
Qaysi sonlar **10 ga** ham karrali?

230 105 125 317 215 130 103


5 ga bo‘linish alomati

Oxirgi raqami 0 yoki 5 bilan tugaydigan sonlar 5 ga bo‘linadi: [10, 15, 20, 25 ...]

a)



b)



10 ga bo‘linish alomati

Oxirgi raqami 0 bilan tugaydigan sonlar 10 ga bo‘linadi: [10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 110, 120 ...]

120 : 10 = 12

Yodda tuting! **2 · 5 = 10** **4 · 25 = 100** **8 · 125 = 1 000**

2. Faqat barcha sonlari **5 ga karrali** bo‘lgan ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 255 : 5 · 15 + 345 : 5
b) 405 : 3 · 25 + 15 · (345 – 315)
d) 545 + 2 345 : 5 · 45 – 1 985

3. **[2, 3, 5, 7, 10, 12, 15, 20, 23, 50, 55, 102, 110]** natural sonlar to‘plamidan quyidagilarni tanlang:


a) **10 ga** karrali sonlar;
b) **5 ga** karrali sonlar;
d) **20** sonining bo‘luvchilari;
e) **55** sonining bo‘luvchilari.

4. Ifodalarning qiymatini **qulay usulda** hisoblang.

a) 9 · 2 · 5
b) 4 · 25 · 5
d) 37 · 25 · 4
e) 125 · 3 · 8
f) 2 · 302 · 5
g) 8 · 16 · 125

5. 364 sahifali kitobning har bir sahifasida 65 tadan so‘z bor. Shunday 3 ta kitobda jami nechta so‘z bor?

6. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi yer maydonining perimetri 72 m. Agar yer maydonining bo‘yi 25 m bo‘lsa, uning yuzini toping.



7. Ifodalarning qiymatini hisoblang va natijalarni **metr**, **detsimetr** hamda **santimetrlarda** ifodalang.

a) (6 dm + 3 m 72 cm) : 3 + 45 cm · 3
b) (907 cm – 1m 6 dm 9 cm) : 9 + 1 m 93 cm · 5

8. Ushbu ifodalarning qiymatlari **10 ga** bo‘linishi yoki bo‘linmasligini tekshiring.

a) (2 808 + 5 698 + 1 094) : 4
b) 356 · 3 + 241 · 3 + 173 · 3
d) (13 450 + 28 567) – 339 · 3

9. Karvon cho‘l bo‘ylab 664 km yo‘l bosishi kerak edi. U birinchi kun 88 km, ikkinchi kun 96 km yo‘l bosdi. Qolgan masofani esa har kuni 60 km dan bosib o‘tdi. Karvonning cho‘lni kesib o‘tishi uchun jami necha kun kerak bo‘lgan?

I kun – 88 km
II kun – 96 km
Qoldi – ? km, ? kun – har kuni 60 km

664 km — (?) kun

19-dars. 3 ga va 9 ga bo‘linish alomatlari

1. Berilgan sonlarning har biri uchun **karrali** sonlarni ayting.

4 5 6 10 18 3 2 15 9

2. Avval barcha sonlari **2 ga**, so‘ng **10 ga**, keyin esa **5 ga** bo‘linadigan ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 2 400 : 100 · 30 + 450 · 60

b) 5 675 + 21 000 : 5 · 15 – 4 210 : 5

d) 428 : 4 · 46 + 4 856

3 ga bo‘linish alomati

Agar sonning raqamlari yig‘indisi 3 ga bo‘linsa, sonning o‘zi ham 3 ga bo‘linadi.

672 : 3 = 224 **6 + 7 + 2 = 15 (3 ga bo‘linadi)**

9 ga bo‘linish alomati

Agar sonning raqamlari yig‘indisi 9 ga bo‘linsa, sonning o‘zi ham 9 ga bo‘linadi.

981 : 9 = 109 **9 + 8 + 1 = 18 (9 ga bo‘linadi)**

3. Qaysi qoplardagi yukning massasi **3 ga** bo‘linadi? **9 ga**-chi?



108 kg 45 kg 92 kg 60 kg 36 kg 54 kg

Har bir sonning **raqamlari yig‘indisini** toping. Nimani sezdingiz?

4. Tenglamalarni yeching va qaysi tenglamaning ildizi **3 ga** va **9 ga karrali** ekanligini aniqlang.

a) 966 : (133 + x) = 7

b) y · 9 – (423 + 347) = 121

d) 911 – (601 – c) = 317


e) 563 – x · 10 = 533

5. Ifodalarning qiymatini hisoblang va natijalarni **metr**, **detsimetr** hamda **santimetrlarda** ifodalang.

a) (9 dm + 3 m 12 cm) : 3 + 35 cm · 5

b) (308 cm + 2 m 5 dm 9 cm) : 9 + 3 m 54 cm · 5

6. Olimlar birinchi podada 28 ta, ikkinchi podada undan 13 ta ko‘p, uchinchi podada esa birinchi va ikkinchi podadagi sayg‘oqlar jami sonidan 3 marta kam sayg‘oqni sanadilar. Olimlar jami nechta sayg‘oqni sanadilar?



7. Tuyalarda sayohat qilish uchun bir nechta ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tdi. Karvonda har bir ishtirokchiga bittadan tuya ajratilgan edi. Ishtirokchilarning uchdan bir qismi sayohatdan voz kechdi. Natijada oyoqlarning umumiy soni 24 taga kamaydi. Dastlab karvonda nechta tuya bo‘lgan? Keyin nechta tuya qolgan?

8. Faqat barcha sonlari **3 ga bo‘linadigan** ifodalarning qiymatini hisoblang.


a) 673 · 724 + 141 · (8 562 – 1 843)

b) 80 100 : 9 + (64 287 – 21 876) · 6

d) 24 · (39 834 – 15 480 : (27 + 33) · 111)

e) 8 886 + (143 + 219) · 6 – 12 690 : 54

9. Biologlar cho‘lda 24 ta fototuzoq o‘rnatishdi. Ulardan 3 tasining har biri 1 480 tadan, qolganlarining esa har biri 2 064 tadan suratga oldi. Jami nechta fotosurat olingan?



20-dars. 2 ga va 4 ga bo‘linish alomatlari

1. Sonlar orasidan **4 ga qoldiqsiz bo‘linmaydigan** sonni toping va Toshkent botanika bog‘i qaysi yilda ochilganini bilib oling.

772 | 2 020 | 6 000 | 72 544 | 1 950 | 1 996 | 300 048

Bu sonlarning qaysilari **2 ga** bo‘linadi? Xulosa chiqaring.

Yodda tuting! Barcha juft sonlar 2 ga bo‘linadi.

4 ga bo‘linish alomati

Agar sonning oxirgi ikkita raqami nollar bo‘lsa yoki ular hosil qilgan ikki xonali son 4 ga bo‘linsa, u holda bu son ham 4 ga bo‘linadi.

234 600 | 6 909 328 | 484 344 | 7 340 356

2. **[54 390, 249 180, 34 043, 8 742, 7 904, 6 003]** natural sonlar to‘plamidan quyidagilarni yozing:

a) **2 ga** bo‘linadigan sonlarni;
b) **4 ga** bo‘linadigan sonlarni.
Xulosa chiqaring: agar son **4 ga** bo‘linsa, u …

3. Lolalar piyozboshlar orqali ko‘payadi: har bir piyozboshdan bir nechta yangi piyozbosh hosil bo‘ladi. Maftuna va Komilaning har biri bittadan egatga lola piyozboshlarini ekdi. Kuzda ular hosil bo‘lgan yangi piyozboshlarni sanadilar.



Maftunada
3 ta piyozbosh – 4 tadan;
5 ta piyozbosh – 2 tadan;
4 ta piyozbosh – 1 tadan
yangi piyozbosh hosil qilgan.



Komilada
4 ta piyozbosh – 4 tadan;
6 ta piyozbosh – 3 tadan;
2 ta piyozbosh – 2 tadan
yangi piyozbosh hosil qilgan.

Qizlarda jami nechta **yangi lola** bo‘ladi?

4. Tenglamalarni yeching. Ildizi **4 ga** bo‘linadigan tenglamalarning tagiga chizing.

a) $(x - 420) \cdot 5 = 200 \cdot 2$
b) $120 : (35 - x) = 10$
d) $x \cdot 9 = 540 - 360$
e) $70 + 8 \cdot a = 150$

5. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $62\,420 : 5 \cdot 49 - 23 \cdot (12\,476 - 11\,987)$
b) $56\,700 : 100 \cdot 52 + (12\,345 : 5 - 127)$

6. Tomorqa to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida. Agar tomorqaning yuzi 800 m², bo‘yi esa 40 m bo‘lsa, uni o‘rash uchun necha metr to‘siq kerak bo‘ladi?



7. Birinchi poyezd 4 soat davomida 115 km/h tezlik bilan, ikkinchi poyezd esa undan 2 soat ko‘p vaqt davomida 17 km/h kam tezlik bilan yurdi. Qaysi poyezd ko‘p va qancha ko‘p yo‘l bosgan?



8. Nargizada bittadan va ikkitadan gul ekishga mo‘ljallangan gultuvaklar bor. Nargiza gultuvaklarga sunbul, za’faron va lola piyozboshlarini ekmoqchi. Buni necha xil usulda amalga oshirishi mumkin?



9. Amallarni bajaring.

3 052 : 4	210 540 : 60	90 100 – 307 · 269
736 312 : 8	60 480 : 90	50 200 – 86 · 207

10. Texnologiya darslari uchun qizil va yashil rangli qog‘ozdan jami 20 qadoq sotib olindi. Har bir qadoqdagi varaqlar soni bir xil bo‘lib, qizil qog‘ozlar 240 varaq, yashil qog‘ozlar esa 160 varaq edi. Qizil va yashil qog‘oz necha qadoqdan sotib olingan?

21-dars. Misol va masalalar yechish

1. Jadvaldan quyidagilarni tanlang:

a) **3 ga karrali** sonlarni **kamayish** tartibida;
b) **4 ga bo‘linadigan** sonlarni **o‘sish** tartibida;
d) **5 ga bo‘linadigan** sonlarni **o‘sish** tartibida.

Qanday so‘zlar hosil bo‘ldi? Bu raqs turlari haqida nimalarni bilasiz?

A	V	G	D	Z	I	K	L	R	S	A
40	16	381	50	426	375	25	720	250	844	543

2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 806 · (7 010 – 6 625)
b) 150 100 – 697 · 208
d) 73 099 + 281 · 406
e) (537 + 963) · 196


3. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 86 mm bo‘lib, **bu** uning enidan 2 marta katta. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi va perimetrini hisoblang.

4. Taqqoslang.

a) 7 t 5 q ☐ 7 t 50 kg
b) 30 km 100 m ☐ 31 000 m
d) 8 m 5 dm ☐ 7 m 55 cm
e) 45 q ☐ 5 t 4 q

5. **Teng yonli uchburchak** – ikki tomoni teng bo‘lgan uchburchak. Chizmadan toping:


a) barcha to‘g‘ri burchakli uchburchaklarni;
b) barcha teng yonli uchburchaklarni.



6. O‘tgan yili xalq raqslari festivaliga 3 528 nafar O‘zbekiston aholisi tashrif buyurdi. Sayyohlar soni esa ularning sonidan 3 marta kam bo‘ldi. Bu yil o‘zbekistonliklar o‘tgan yildagiga qaraganda 417 nafarga ko‘p keldi. Sayyohlar soni esa 527 nafarga ortdi. O‘tgan yili festivalga jami necha kishi tashrif buyurdi? Bu yil-chi?



7. So‘roq belgisi o‘rnida qanday **son** bo‘lishi kerak?



8. **Eng kichik o‘lchov birliklarida** ifodalang. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 43 m 60 cm – 60 cm + 28 m 50 cm + 17 m 80 cm

b) 35 m 20 cm – 12 m 80 cm – 13 m 35 cm

d) 9 kg 300 g + 7 kg 50 g + 15 kg 4 g

e) 3 dm 7 cm + 1 cm 3 mm + 1 m 15 mm

9. 5 nafar festival g‘olibining har biri uchun tashkilotchilar sovg‘alar tayyorlashdi: 30 000 so‘mdan fotoramka va 65 000 so‘mdan guldasta. Sovg‘alar uchun jami qancha pul sarflangan?



22-dars. Misol va masalalar yechish

1. Har bir qatordagi ortiqcha sonni toping. Qolgan sonlarni birlashtirib turuvchi **umumiy alomatni** ayting.

a) 78 29 297 31 10 88

b) 400 900 1 000 80 000 7 000 000 8 340 3 000

d) 12 234 3 456 12 345 45 678

e) 456 12 9 115 171 9 996 4 215 402

2. Quyidagi **sonlarni** toping, agar u:

a) 265 dan 5 marta katta bo‘lsa; b) 2 460 dan 10 marta kichik bo‘lsa;
d) 35 dan 100 marta katta bo‘lsa; e) 224 dan 7 marta kichik bo‘lsa.

3. Ifodalarning qiymatini hisoblang. **Amallarning bajarilish tartibi bo‘yicha** olingan javoblarga mos harflarni tegishli tartibda joylashtiring. Qachon ekin ekish, uni qanday parvarishlash va hosilni qanday yig‘ib olishni biladigan kasb qanday atalishini aniqlang.

3 000 – 9 · (345 + 187) : 2 + 7 · (650 – 117)

A 532	G 533	R 4 788	O 2 394
O 606	N 3 731	M 4 337	

4. Akmal, Jasur va Sardor sportchilar tasvirlangan kartochkalarni yig‘ishadi. Akmal 487 ta kartochka yig‘di, Jasur Akmaldan 12 ta ko‘p, Sardor esa Akmal bilan Jasurning kartochkalari jami sonining yarmini yig‘di. Bolalarda jami nechta kartochka bor?

5. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 5 h 25 min + 9 h 45 min – 3 h 7 min


b) 4 d 12 h – 2 d 19 h + 3 d 16 h

6. Bolalar maydonchasi tomoni 20 m bo‘lgan **kvadrat** shaklida. Maydoncha atrofi to‘siq bilan o‘ralishi kerak. To‘siqning har bir qismi 2 m uzunlikda.

a) Shunday **to‘siq qismlaridan** nechta sotib olish kerak?

b) Agar to‘siqning **bitta qismi** 23 000 so‘m tursa, jami qancha pul to‘lash kerak?





7. Tenglamalarni yeching.

a) $(36\,654 - y) : 3 = 1\,909 + 7\,992$

b) $(a + 6\,882) : 28 = 2\,660$

8. **Ifodalarni** yozing va ularning qiymatini hisoblang:

a) **5 919** va **1 232** sonlari yig‘indisini **71** ga ko‘paytirish;

b) **922 589** va **586 397** sonlari ayirmasini **4** ga bo‘lish;

d) **678** va **85** sonlari ko‘paytmasidan **12 452** ni ayirish;

e) **718 000** sonidan **3 836** va **274** sonlari bo‘linmasini ayirish.

9. Bozorda ona har biri 2 000 so‘mdan 3 bog‘ ko‘kat, har kilogrami 6 000 so‘mdan 4 kg kartoshka, har kilogrami 12 000 so‘mdan 2 kg guruch va 3 idish kungaboqar yog‘i sotib oldi. Xarid uchun jami 132 000 so‘m to‘ladi. Bir idish kungaboqar yog‘i qancha turadi?



3 bog‘
2 000 so‘mdan



4 kg
6 000 so‘mdan



2 kg
12 000 so‘mdan




3 idish
? so‘mdan

132 000 so‘m

23-dars. Ikki xonali songa bo‘lish. Tanlash

1. Bir minutda jo‘mrakdan **15 litr** ichimlik suvi oqib chiqadi.

a) Sonli nur yordamida jo‘mrakdan 1 minutda, 2 minutda va 3 minutda qancha suv oqib chiqishini aniqlang.
b) 7 minutda necha litr suv oqib chiqadi?
d) Hajmi 75 litr bo‘lgan vanna necha minutda to‘ladi?




Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang. Barcha ifodalarning qiymatini hisoblay olasizmi?

a) Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo‘lishda bo‘linma tanlash (chamalash) usuli bilan topiladi.


Buning uchun bo‘luvchiga ko‘paytirilganda bo‘linuvchiga teng natija beradigan son tanlanadi.

b) 75 : 15 ifoda uchun bo‘linmani tanlaymiz.
15 soni 75 soni ichida 5 marta bor.




Ko‘paytirish orqali tekshiramiz: 15 · 5 = 75.
Bu holda qoldiq 0 ga teng. Demak, bo‘linma to‘g‘ri tanlangan.

2. Shunday **bir xonali** sonlar tanlangki, hisoblashlar to‘g‘ri bo‘lsin.



3. Bo‘lishni bajaring.



4. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Ichimlik suvi uchun mo‘ljallangan bitta idishga 18 litr suv sig‘adi. Sinf o‘quvchilari bir oyda 90 litr suv iste’mol qilsa, necha idish suv kerak bo‘ladi?

b) Sinfning 26 nafar o‘quvchisi uchun 78 idish ichimlik suvi tayyorlandi. Har bir o‘quvchi necha idishdan ichimlik suvi oladi?









5. Vodoprovodga uzatilishidan oldin suv maxsus hovuzlarda tozalanadi. Shunday hovuzlardan birining **to‘g‘ri to‘rtburchak** shaklidagi tubining yuzi 98 m². Agar hovuzning uzunligi 14 m bo‘lsa, uning perimetri qanday bo‘ladi?

6. Ifodalarning qiymatini **qulay usulda** hisoblang. Nimani sezdingiz?

a) (45 + 60 + 15) : 15

b) (44 + 22 + 88) : 11

d) (35 + 42 + 84) : 7

e) (23 + 33 + 19) : 25

7. Bo‘lishni bajaring. Javoblarga mos harflarni **kamayish** tartibida joylashtiring va uy sharoitida suvni tozalashning qanday usulidan foydalanishimizni bilib oling.

A 95 : 19	Q 99 : 11	SH 42 : 21
Y 91 : 13	I 69 : 23	T 68 : 17
A 96 : 12	N 84 : 14	

8. Agar 45 ta blokda 540 shisha suv bo‘lsa, 13 ta blokda necha shisha suv borligini aniqlang.



24-dars. Ikki xonali songa bo‘lish. Tanlash

1. Sonlarning **xona** tarkibini ayting.


25 605 41 673 4 278 345 200

Qaysi sonlar: **2**; **3**; **4**; **5**; **9**; **10** ga bo‘linadi?


Ko‘p xonali sonni ikki xonali songa bo‘lish

882 : 42 bo‘lishni bajaramiz.


1-qadam. Birinchi to‘liqsiz bo‘linuvchi topiladi – 88.



2-qadam. Bo‘linmadagi raqamlar soni nuqtalar bilan belgilanadi.



3-qadam. 42 soni 88 soni ichida necha marta borligi taxmin qilinadi. Taxminan 2 marta, chunki 42 · 2 = 84. Qoldiq – 4.




4-qadam. Qoldiq yoniga keyingi xonadagi raqam tushiriladi va bo‘lish shu tartibda davom ettiriladi.

42 : 42 = 1 – bo‘linmaga 1 yoziladi.

Ko‘paytirish orqali tekshiriladi.

42 · 1 = 42. Bo‘lish qoldiqsiz bajarildi.



2. Bo‘lishni **burchak usulida** bajaring va ko‘paytirish bilan tekshiring.

575 : 25	558 : 31	1 365 : 21
345 : 15	980 : 35	2 494 : 43

3. Ifodalarning qiymatini **sharhlab** hisoblang.

a) 10 000 – 986 : 34 · 280 b) 3 499 + 1 104 : 23 · 65

4. Taqqoslang.


a) a · 19 ☐ a · 10 + a · 4 d) 230 : k ☐ 200 : k + 30 : k

b) b · 42 ☐ (b · 40) · 2 e) a : 36 ☐ (a : 30) : 6

5. Har bir son uchun undan **oldin** va **keyin** keladigan sonlarni ayting. Berilgan sonlarda nechta to‘liq **yuzlik**, **o‘nlik** va **birlik** bor?

246 856 673 890 52 186 95 349

6. Konchilarning 1-brigadasi bir smenada 63 ta vagon ko‘mir tashib chiqardi. 2-brigada 1-brigadaga qaraganda 9 ta ko‘p, 3-brigada esa 1- va 2-brigadalar birgalikda tashigan ko‘mir miqdoridan 3 marta ko‘p ko‘mir tashib chiqardi. Uchala brigada jami nechta vagon ko‘mir tashib chiqargan?




7. Tenglamalarni yeching.

a) x + 425 = 31 584 : 56 b) y – 245 = 432 · 56

8. Bo‘lishni bajaring va ko‘paytirish bilan **tekshiring**.

672 : 56	5 616 : 36	1 575 : 45
646 : 17	1 677 : 39	1 904 : 56

9. Tushlikkacha 880 kg, tushlikdan keyin esa 730 kg olma terib olindi. Barcha hosilni 35 kg dan qilib yashiklarga joylash kerak. Buning uchun nechta yashik kerak bo‘ladi?



25-dars. Ikki xonali songa bo‘lish. Tanlash

1. **Qonuniyatni** aniqlang va har bir ketma-ketlikdagi oxirgi ikkita sonni toping.

a) 18 → 27 → 36 → 45 → ? → ?

b) 3 → 6 → 12 → 24 → ? → ?

2. Bo‘lishni **burchak usulida** bajaring.

925 : 25 = 37 608 : 16 = 38 1314 : 18 = 73 1024 : 64 = 16

3. Tenglamalarni yeching.

a) $x \cdot 35 = 823 + 17$ b) $4\,355 : y = 143 - 76$

4. Ifodalarni soddalashtiring.

a) $a + 278 + 332$

b) $m + 19 + 82 + 16$

d) $x + 2\,093 : 23 + 255 : 17$

e) $567 + b + 103$

f) $54 + 34 + n + 192$

g) $285 : 15 + y + 14 \cdot 28$

5. Ifodaning qiymatini **amallarning to‘g‘ri bajarilish tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang. Javoblarga mos harflarni shu tartibda joylashtiring va tabiiy gaz tarkibidagi asosiy gazning nomini bilib oling.

$12\,890 - 2 \cdot (4\,569 - 2\,110) - 880 : 16$

A 7 972	M 2 459	O 2 731
E 4 918	N 7 917	T 55

6. Yozda 23 ballon, kuzda yozdagidan 2 marta ko‘p, bahorda kuzdagidan 3 ballon kam, qishda esa yoz va kuzda birgalikda qancha bo‘lsa, shuncha ballon gaz sarflangan. Bir yilda jami necha ballon gaz sarflanganini aniqlang.




7. **Ifodalarning** qiymatlarini hisoblamasdan, ularni taqqoslang.

480 : 6 ☐ 240 : 6	833 : 7 ☐ 833 : 17
287 + 178 ☐ 287 – 178	543 + 655 ☐ 655 + 543
220 : 2 ☐ 220 · 2	721 + 319 ☐ 719 + 321

8. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi 672 dm^2, eni 12 dm. Uning **perimetrini** toping.

9. Ikkita gugurt cho‘pining joyini shunday o‘zgartiringki, natijada tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.



10. Tabiiy gaz ko‘pincha yana bir foydali qazilma bilan birga qazib olinadi. Ikki xonali javoblarni **kamayish** tartibida joylashtiring va ularga mos harflardan ushbu foydali qazilma nomini bilib oling.


T 1 632 : 96	I 560 : 80	Y 630 : 90
E 882 : 42	N 1 311 : 23	F 855 : 45


11. Tabiiy gazdan foydalanganlik uchun xonadonda yashovchi har bir kishi oyiga 13 200 so‘m to‘laydi. 8 kishidan iborat oila yarim yil uchun qancha pul to‘lashi kerak?




26-dars. Uch xonali songa bo‘lish

1. Berilgan shakllarning **perimetrini** toping.





2. Bo‘lishni bajaring. Nimani sezdingiz?



Uch xonali songa bo‘lish xuddi ikki xonali songa bo‘lish kabi bajariladi.

3. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

774 : 129	2 296 : 287	2 850 : 475
4 256 : 152	25 745 : 271	7 656 : 638

4. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Bitta vagonga 67 tonna toshko‘mir ortish mumkin. 1 206 tonna toshko‘mirni tashish uchun nechta vagon kerak bo‘ladi?

b) Yuk poyezdiga har biriga 60 tonnadan neft ortilgan 3 ta sisterna va har biriga 50 tonnadan neft ortilgan 5 ta sisterna ulandi. Sisternalarda jami necha tonna neft bor?

5. **Ifodalarning** qiymatlarini hisoblamasdan, ularni taqqoslang.

a) 12 798 : 3 ☐ 12 798 : 9

b) 11 175 : 15 ☐ 11 175 : 25

d) 18 432 : 24 ☐ 18 432 : 48

e) 12 312 : 27 ☐ 12 312 : 54

6. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Berilgan jonzotlar qaysi materikda yashashini aniqlang.



12 942 : 719



12 474 : 54



10 285 : 121



8 662 : 61



63 + 79



111 – 93



420 – 189



42 + 43

7. To‘qimachilik fabrikasida 612 000 metr gazlama ishlab chiqarildi. Barcha gazlamaning $\frac{4}{10}$ qismi tikuv sexiga, $\frac{2}{9}$ qismi esa do‘konga yuborildi. Fabrikada necha metr gazlama qoldi?




8. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) (34 217 – 25 329) · 92 – (58 508 + 498 115) : 69

b) 10 201 – 415 498 : 83 + 616 528 : (21 851 – 21 763)

9. Avtodrom uchun bo‘yi 700 metr, eni undan 150 metr kam bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi yer maydoni ajratildi. Ushbu maydonning perimetrini toping.



27-dars. Uch xonali songa bo‘lish

1. Har bir mashinadagi mevalarni uchta do‘konga teng miqdorda tarqatish kerak. Har bir do‘kon necha kilogrammdan meva oladi?



420 kg olma


390 kg nok


570 kg shaftoli

Ko‘p xonali sonni uch xonali songa bo‘lish algoritmi

1. Birinchi to‘liqsiz bo‘linuvchi topiladi.
2. Bo‘linmadagi raqamlar soni aniqlanadi.
3. Chamalash orqali bo‘linmaning sinov raqami tanlanadi.
4. Bo‘linadi.
5. Ko‘paytirish orqali bo‘linma raqami to‘g‘ri tanlangani tekshiriladi.
6. Ayiriladi.
7. Qoldiq topiladi (agar qoldiq bo‘lsa, bo‘lish davom ettiriladi).



2. Bo‘lishni bajaring. **Uch xonali songa bo‘lish algoritmidan** foydalaning.

11 560 : 136	16 443 : 189	12 628 : 164
23 206 : 283	10 224 : 284	12 905 : 145

3. Masalalarni yeching.

a) Tikuvchi har bir ko‘ylakka 8 tadan tugma qadashi kerak. Agar unda 50 ta tugma bo‘lsa, nechta ko‘ylak tayyor bo‘ladi? Nechta tugma ortib qoladi?

b) 30 nafar o‘quvchining har biriga nazorat ishi uchun 5 tadan daftar tayyorlanishi kerak. 153 ta daftardan nechta to‘plam hosil bo‘ladi? Nechta daftar ortib qoladi?

4. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) (3 t 4 q 16 kg – 3 q 9 kg) · 25


b) (6 h 32 min + 18 h 7 min) : 17




5. Tikuvchi raqs jamoasi uchun sahna liboslarini tikmoqda. 15 ta ko‘ylak uchun 51 metr to‘r ishlatildi. Qolgan 6 ta ko‘ylak uchun yana necha metr to‘r sotib olish kerak?

6. Har bir shaklning perimetri va yuzini toping.

a)



b)



7. Tenglamalarni yeching.

a) a – 5 535 : 123 = 100

b) 4 914 : 78 – x = 900 : 30

8. Amallarni bajaring.

22 674 + 9 805	725 · 36	40 851 : 459
34 845 – 21 937	236 · 56	8 892 : 156
52 902 – 32 895	23 · 789	75 114 : 963

9. Poyezd birinchi kun 248 km/h tezlikda harakatlanib, 4 464 km yo‘l bosdi. Ikkinchi kun esa 256 km/h tezlikda 3 072 km yo‘l bosdi. Poyezd yo‘lda jami qancha vaqt bo‘lgan?



28-dars. Misol va masalalar yechish

1. Sonlarni o‘qing. Har bir son uchun undan **oldin** va **keyin** keladigan sonlarni ayting. Sonlarni **xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi** ko‘rinishida yozing.

856 245 | 29 478 | 2 057 | 569 207

2. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

a) 472 · 54 ☐ 562 · 35

b) 845 · 29 ☐ 305 · 43

d) 13 216 : 236 ☐ 12 040 : 215

e) 15 876 : 756 ☐ 28 975 : 305

3. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Transport turini unga mos yuk bilan moslang.



28 · (36 + 42) – 1 178



(95 – 78) · 79 + 1 629



5 978 – (768 : 4 + 1 782)



2 972



4 004



1 006

4. Tenglamalarni yeching.

a) 526 · (x – 145) = 12 624

b) 8 550 : (957 – x) = 18


5. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 12 h 55 min + 7 h 27 min – 10 h 42 min

b) 7 d 15 h – 3 d 21 h + 5 d 17 h


6. Fermada bir kunda 1 968 litr sut sog‘ib olindi. Shundan 432 litri fermerlarga berildi, qolgan sut esa 48 ta bidonda shaharga yuborildi. Har bir bidonda necha litr sut bo‘lgan?





7. Agar to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi dalaning yuzi 7 140 m², bo‘yi esa 105 m bo‘lsa, uning eni va perimetrini toping.

8. **Bitta gugurt cho‘pini** shunday olingki, natijada tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.



9. Ifodalarga qavslarni shunday qo‘yingki, natijada ularning qiymati **96** ga teng bo‘lsin.

a) 24 + 40 : 8 – 3 · 9

b) 5 + 52 – 45 · 13

10. **Eng kichik o‘lchov birligiga** keltiring. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) (3 km 282 m + 6 km 126 m) : 12 – 234 m 7 dm

b) 4 · (8 m 6 dm 2 cm – 2 m 17 cm) + 24 dm 1 cm

11. Baliqchi birinchi kun 5 kg 230 g baliq tutdi, **bu** ikkinchi kundagidan 2 marta ko‘p, uchinchi kundagidan esa 1 kg 105 g ko‘p. Baliqchi uch kun davomida jami necha kilogramm baliq tutgan?




29-dars. Misol va masalalar yechish

1. Tenglamalarni sharhlab yeching.

a) $x + 5 = 2 \cdot 16$
b) $(m - 4) : 14 = 5$
d) $b - 300 = 100 : 20$
e) $(500 - c) \cdot 5 = 55$


2. Sxemalar bo‘yicha tenglamalar tuzing va ularni yeching.



Yodda tuting!

Agar burchak usulida bo‘lishda qoldiqqa keyingi xonadagi raqam tushirilganda bo‘luvchidan kichik son hosil bo‘lsa, unda:

- **bo‘linmaga 0 yoziladi;**
- **so‘ng keyingi xonadagi raqam tushiriladi va bo‘lish davom ettiriladi.**



3. **Bo‘linmada** nechta raqam bo‘lishi kerakligini aniqlang. Bo‘lishni bajaring va tekshiring.

80 730 : 26
57 288 : 44
970 582 : 97
3 744 : 18
78 280 : 38
780 702 : 78

4. Ifodalarning qiymatini **amallar tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang.


a) $558\,925 - 289 \cdot 56 - 37\,392 : (1\,245 - 789)$
b) $(483 \cdot 249 + 21\,204 : 589) : 3 + 85\,274$

5. Ifodalar bo‘yicha **masalalar** tuzing.

a) $60 + 60 : 5$
b) $60 - 60 : 5$
d) $60 + (60 - 5)$

6. Bo‘yi 80 m, perimetri esa 220 m bo‘lgan makkajo‘xori dalasining **yuzini** toping.

7. To‘qqizta bir xil yashikka 60 kg sariq va 30 kg yashil nok joylangan. 170 kg nokni joylash uchun nechta shunday yashik kerak bo‘ladi?



8. Omborda har biri 50 kg dan 25 qop va har biri 30 kg dan 40 qop un bor edi. Keyin yana har biri 50 kg dan 12 qop un keltirildi. Omborda jami necha kilogramm un bo‘ldi?



9. Harflar o‘rniga yashirilgan raqamlarni toping.

A × A = BA

G × G = DG

BA − DG = FF



10. **Ifodalar** yozing va ularning qiymatini hisoblang.

a) 6 709 va 8 912 sonlari yig‘indisini 107 ga orttirish.
b) 637 700 va 287 000 sonlari ayirmasini 3 marta kamaytirish.
d) 345 va 28 sonlari ko‘paytmasidan ularning yig‘indisini ayirish.
e) 13 910 va 65 sonlari bo‘linmasini 8 449 ga orttirish.

11. Yupqa qadoqda 200 ta varaq, qalin qadoqda esa undan 300 ta ko‘p varaq qog‘oz bor. Stolda 7 ta yupqa va 4 ta qalin qadoqli qog‘oz bo‘lsa, jami necha varaq qog‘oz bor?

30–31-darslar. 2-nazorat ishi. Xatolar ustida ishlash

32-dars. Xonalar va sinflar. Million

1. Sonlarni **o‘qing.** Avval o‘nlar xonasida 5 raqami turgan sonlarni, so‘ng yuzlar xonasida 5 raqami turgan sonlarni ayting. Nimani sezdingiz?

245 465 | 456 258 | 36 505 | 125 158

2. Shunday sonlarni yozingki, ularda:

a) minglar sinfida 12 ta o‘nlik va 5 ta birlik, birlar sinfida 6 ta yuzlik va 2 ta birlik bo‘lsin;

b) minglar sinfida 5 ta yuzlik va 3 ta birlik, birlar sinfida 2 ta o‘nlik va 3 ta birlik bo‘lsin.

152 206 | 125 620 | 125 602
503 230 | 503 023 | 350 320

1 000 000 sonining hosil bo‘lishi

1 000 000 = 100 000 o‘nl. = 10 · 100 000

1 000 000 = 10 000 yuzl. = 100 · 10 000

Yodda tuting!

1 000 000 sonining yozuvida oltita nol bor.

3. Jadvalni ko‘rib chiqing va undagi sonlarni ayting.

sinflar	III sinf millionlar			II sinf minglar			I sinf birlar		
xonalar	yuz mln.	o‘n mln.	mln.	yuz mingl.	o‘n mingl.	mingl.	yuzl.	o‘nl.	birl.
sonlar			1	0	0	2	4	0	5
		1	2	5	0	3	2	0	7
		2	3	0	3	5	6	5	0
	1	2	4	2	9	6	8	4	3

4. Sanang:


a) 8 597 dan 8 612 gacha

b) 19 603 dan 19 594 gacha

5. Ko‘paytirishni **ustun ko‘rinishida** bajaring.

45 · 23 400	270 · 3 420	925 · 325
5 624 · 23	12 505 · 45	781 · 256

6. Tushirib qoldirilgan raqamlarni aniqlang.



7. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 249 · 36 + 4 896

b) 319 615 : 485 – 619

d) (7 849 + 25 846) : 5

e) (4 378 + 2 945) · 24

8. Massasi 2 kg 400 g bo‘lgan bayram torti 12 ta teng bo‘lakka bo‘lindi. Bayramda uning 9 ta bo‘lagi yeyildi. Necha gramm tort qoldi?



? g

2 kg 400 g

9. Ifodalarning qiymatini **amallarning to‘g‘ri tartibiga rioya qilgan holda** hisoblang. Javoblarga mos harflarni shu tartibda joylashtiring va bu yerda qanday pishiriq nomi yashiringanini aniqlang.

840 · 40 + 963 000 : (63 700 : 70 – 10) – 22 900

T 6 190	S 15 970	R 33 600	I 11 770
A 1 070	A 900	Q 34 670	V 910


10. 36 ta pirojniy tayyorlash uchun 4 kg 320 g un kerak bo‘ldi. Shunday 25 ta pirojniy tayyorlash uchun qancha un kerak bo‘ladi?

33-dars. Xonalar va sinflar. Millionlar sinfi

1. Sonlarni o‘qing. Har bir sonning yozuvidagi **bir xil raqamlar** nimani bildiradi?

12 342 | 55 485 | 1 023 100 | 8 803 233

2. Cho‘tda tasvirlangan sonlarni o‘qing. Har bir sonning **qo‘shnilarini** ayting.



Birlar sinfining birlar, o‘nlar va yuzlar xonasi birinchi sinfni; minglar sinfining minglar, o‘n minglar va yuz minglar xonasi ikkinchi sinfni; millionlar sinfining millionlar, o‘n millionlar va yuz millionlar xonasi uchinchi sinfni tashkil etadi.

sinflar	III sinf millionlar			II sinf minglar			I sinf birlar		
xonalar	yuz mln.	o‘n mln.	mln.	yuz mingl.	o‘n mingl.	mingl.	yuzl.	o‘nl.	birl.

3. Quyidagilarni o‘z ichiga olgan **sonlarni** yozing:

a) millionlar sinfida 15 ta birlik va minglar sinfida 425 ta birlik;
b) III va II sinflarda 25 tadan birlik;
d) millionlar sinfida 5 ta birlik va birlar sinfida 5 ta birlik;
e) millionlar sinfida 5 ta yuzlik va 3 ta o‘nlik, minglar sinfida 2 ta o‘nlik va 3 ta birlik, birlar sinfida 8 ta yuzlik va 5 ta o‘nlik.

4. Amallarni **sharhlab, ustun ko‘rinishida** bajaring.

2 456 845 + 65 845 — 3 656 849 – 258 906
4 003 809 – 2 427 536 — 4 275 921 + 273 059

5. Tenglamalarni yeching.

a) a – 23 456 007 = 1 845 + 4 297

b) 5 067 342 – x = 2 983 645

6. **Tengsizliklar to‘g‘ri** yoki **noto‘g‘riligini** tekshiring.

4 t > 400 q 5 q > 500 kg	3 d > 40 h 42 h > 4 d	4 ra > 200 a 6 m² < 50 dm²

7. 600 000 so‘mga 24 kg “Lazer” guruchi yoki 15 kg “Devzira” guruchi sotib olish mumkin. “Devzira” guruchining 1 kilogrami “Lazer” guruchining 1 kilogrammidan necha so‘m qimmat?

	narxi *(a)*	miqdori *(n)*	qiymati *(C)*
Lazer	? so‘m	24 kg	600 000 so‘m
Devzira	? so‘m	15 kg	600 000 so‘m

? so‘m qimmat

8. Akmal bilan Jasur pul jamg‘armoqda. Oy oxirida Jasur Akmalga dedi:
– Menga 30 ming so‘m bersang, shunda mening pulim sening pulingdan 5 marta ko‘p bo‘ladi.
Akmal javob berdi:
– Yaxshisi, sen menga 30 ming so‘m bersang, shunda ikkalamizning pulimiz teng bo‘ladi.
Har bir bola qancha pul jamg‘argan?

9. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 648 720 : 68 + 506 · 108 – 63 295

b) 608 · 506 – 236 · 400 + 8 716

10. Buvi supermarketdan 175 000 so‘mdan 3 kg go‘sht, 40 000 so‘mdan 4 kg guruch, 1 500 so‘mdan 30 ta tuxum va 147 000 so‘mga 1 kg pishloq sotib oldi. Agar buvining hamyonida 1 000 000 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, xariddan keyin uning hamyonida qancha pul qolgan?

34-dars. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi

1. Sanang:

a) 999 999 dan 1 000 012 gacha; b) 1 000 015 dan 1 000 009 gacha.

2. Quyidagilarni o‘z ichiga olgan **sonlarni** yozing:

a) millionlar sinfida 7 ta yuzlik va 5 ta birlik, minglar sinfida 3 ta o‘nlik, birlar sinfida 7 ta yuzlik va 7 ta birlik;

b) millionlar sinfida 23 ta birlik, minglar sinfida 3 ta birlik va birlar sinfida 5 ta o‘nlik;

d) 9 million 50 ming 7.

Birlar sinfini o‘qiganda oxiriga “birlik” so‘zini qo‘shish kerak emas.

5 ming 847 **12 million 145 ming 200**

3. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $904 \cdot 265 - 803 \cdot 149$ b) $42\,924 : 438 + 35\,505 : 45$

4. Ifodalarning qiymatini **qulay usulda** hisoblang.

$(600 + 48) : 6$ $(720 + 80) : 10$ $(810 + 90) : 9$

$(640 + 60) \cdot 8$ $(50 + 200) \cdot 4$ $(300 + 180) : 3$

5. **Eng kichik o‘lchov birligiga** keltiring va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 8 t 5 q – 23 q 7 kg + 5 t 17 q

b) 26 t 18 kg – 15 t 2 q – 4 t 5 kg

6. Do‘kondan futbolka, shim va 3 juft paypoq sotib olindi. Futbolkaning narxi 90 000 so‘m, shim esa undan 20 000 so‘m qimmat. Har bir juft paypoqning narxi 7 000 so‘mdan. Xarid uchun jami necha so‘m to‘langan?



7. **Ifodalar** yozing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Bitta nargis guli 4 000 so‘m turadi. 7 ta nargis gulidan tuzilgan guldasta qancha turadi?

b) Uchta ro‘molchadan iborat to‘plam 27 000 so‘mga sotib olindi. Bitta ro‘molcha qancha turadi?

d) Bitta daftar 2 500 so‘m, bir o‘ram daftar esa 40 000 so‘m turadi. Bir o‘ramda nechta daftar bor?

8. Qadimda pul o‘rnida turli qimmatbaho buyum va mahsulotlardan foydalanilgan. Ifodalarning qiymatini qulay usulda hisoblang va qaysi mamlakat yoki hududda pul o‘rnida nimadan foydalanilganini bilib oling.




kakao donlari
734 + (922 + 266)



guruch
(1 367 + 879) – 279



kauri chig‘anoqlari
2 704 – (115 + 604)



tuzlangan baliq
19 · 5 · 2 · 10

Yaponiya	Meksika	Afrika	Islandiya
1 967	1 922	1 985	1 900

9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni jadvalda berilgan tartibda joylashtiring va pul ishlatmasdan **tovarni tovarga ayirboshlash** qanday atalishini bilib oling.

A	3 145 + 6 335	O	4 178 + 5 317
E	66 000 – 56 119	R	16 630 – 7 379
B	88 056 : 9	T	78 832 : 8

9 784	9 480	9 251	9 854	9 881	9 251

10. Teatrga kirish uchun bolalar chiptasi narxi 12 000 so‘m, kattalar chiptasi narxi esa 23 000 so‘m. Tomosha uchun 27 ta bolalar va 12 ta kattalar chiptasini sotib olish kerak. Buning uchun jami necha so‘m to‘lanadi?

35-dars. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi, yozilishi va ularni taqqoslash

1. **128 769 + 337 114 = 465 883** ekanligi ma’lum bo‘lsa, quyidagilarni toping:


128 770 + 337 114	465 883 – 128 769	128 768 + 337 113
128 769 + 337 113	465 883 – 337 114	128 768 + 337 115
128 770 + 337 115	465 882 – 337 114	128 779 + 337 124

2. Sonlarni **o‘qing.** Har bir sonning yozuvidagi **4** raqami nimani bildiradi?


45 024 244 74 405 004 5 424 407

Ko‘p xonali sonlarni taqqoslash algoritmi


- Agar raqamlar soni **har xil** bo‘lsa, raqamlari ko‘p bo‘lgan **son katta** bo‘ladi.




- Agar raqamlar soni **bir xil** bo‘lsa, eng **katta xonadagi** qiymatlar taqqoslanadi. Agar ular har xil bo‘lsa, shu xonadagi qiymati katta bo‘lgan son katta bo‘ladi.



- Agar ular **teng** bo‘lsa, keyingi xonadagi raqamlarning qiymati taqqoslanadi.



- Agar ikkala sondagi barcha xonalarning qiymati teng bo‘lsa, bu sonlar teng bo‘ladi.



3. Taqqoslang.

a) 45 478 263 ☐ 45 847 625
b) 12 035 605 ☐ 12 605
d) 8 329 045 ☐ 8 329 450
e) 2 405 825 ☐ 2 405 825

4. **13 013 275** sonidan katta bo‘lgan **uchta sonni** ayting.

5. Ifodalarning qiymatini toping.

a) 876 564 – 132 · (41 090 – 37 697) : 33 – 432 000 : 150

b) 7 245 + 845 · 23 – (1 275 + 6 804) · 2

6. Namuna bo‘yicha bajaring.

Namuna: 78 670 = 78 mingl. 670 birl.

a) 3 005

b) 3 144 014

d) 20 090 040

e) 457 028 403

f) 27 008

g) 907 302

7. Uchburchakning bir tomoni 17 m, ikkinchi tomoni birinchi tomonidan 30 dm uzun, uchinchi tomoni esa ikkinchi tomonidan 1 000 cm qisqa. Uchburchakning **perimetrini** toping.

8. Toshkent shahrida 8 556 gektar yer turarjoylar bilan band bo‘lib, bu sanoat korxonalari egallagan yerdan 13 697 gektarga kam. Turarjoylar va sanoat korxonalari jami necha gektar maydonni egallagan?



9. Taqqoslang.

a) 684 456 ☐ 678 456

b) 23 405 ☐ 2 345 405

d) 935 409 ☐ 935 419

e) 543 489 ☐ 543 489

f) 67 347 ☐ 68 347

g) 129 473 ☐ 129 474

36-dars. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi, yozilishi va ularni taqqoslash



1. Sonlarni **o‘qing.** Ularni **xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi** ko‘rinishida yozing.

4 095 515 | 13 207 345 | 56 790 270



2. Berilgan sonlarni quyidagi tartibda yozing:

a) juft sonlar;
b) **5** ga karrali sonlar;
d) toq sonlar;
e) yaxlit sonlar.

27 345 802	6 485 273
5 873 400	9 473 804
2 473 879	20 480 900



3. Agar $a \neq 0$ bo‘lsa, ifodalarning qiymatini taqqoslang.

a) $46\,247\,005 + a \square 26\,247\,005 + a$
b) $87\,249\,903 - a \square 8\,724\,990$
d) $5\,632 : a \square 9\,632 : a$
e) $a \cdot 392\,478 \square 392\,478 \cdot a$



4. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $(51\text{ q} + 4\text{ t }626\text{ kg}) : 2 - (3\text{ t }7\text{ q} - 15\text{ q }40\text{ kg}) \cdot 2$
b) $4\text{ m }65\text{ cm} + 32\text{ dm }8\text{ cm} - 3 \cdot (6\text{ dm} + 52\text{ cm})$
d) $6\text{ h }42\text{ min} : 6 + 4 \cdot (357\text{ min} - 2\text{ h }15\text{ min})$



5. O‘tgan yili tog‘dagi dam olish maskaniga 56 490 nafar dam oluvchi tashrif buyurgan, ularning uchdan bir qismini chang‘ichilar tashkil etgan. Bu yil dam olish maskaniga o‘tgan yilgiga qaraganda 5 930 nafar ko‘p dam oluvchi tashrif buyurgan. Bu yil chang‘ichilar dam oluvchilarning to‘rtdan bir qismini tashkil etgan. Qaysi yilda chang‘ichilar ko‘p va qancha ko‘p bo‘lgan?

	jami dam oluvchilar	chang‘ichilar
o‘tgan yili	56 490 nafar	? nafar, $\frac{1}{3}$ nafar
bu yil	? nafar, 5 930 nafar ko‘p	? nafar, $\frac{1}{4}$ nafar

? nafar ko‘p

6. Tenglamalarni yeching.

a) $487 - (234 + 117) : x = 448$ b) $(124 - 79) \cdot y + 623 = 1\,253$

7. Ifodalarning qiymatini taqqoslang.

a) $1\,200 : 30 \square 1\,200 : 4$

b) $1\,500 : 30 \square 3\,300 : 30$

d) $245 + 35 \square 245 - 35$

e) $27\,810 : 270 \square 81\,270 : 270$

f) $1\,032 : 129 \square 1\,161 : 129$

g) $4\,260 - 250 \square 4\,620 - 250$

8. Berilgan sonlardan foydalanib, **to‘rtta tenglik** tuzing:

a) 5 600, 80, 70; b) 700, 7, 4 900; d) 920, 221, 699.

9. Uch nafar sayyoh daryoning bir qirg‘og‘idan ikkinchi qirg‘og‘iga o‘tishi kerak. Ularning ixtiyorida 120 kg yukni ko‘tara oladigan eski qayiq bor. Birinchi sayyohning vazni 70 kg, ikkinchisiniki 50 kg, uchinchisiniki 80 kg. Ular daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tish uchun qanday yo‘l tutishlari kerak?



10. Ifodalarning qiymatini toping.

a) $239\,700 : 705 - (82 \cdot 45 - 3\,578) + 11$

b) $4\,000\,000 : 625 : 16 + 2\,760 - (125 \cdot 25)$

11. Uchburchakning bir tomoni 9 m, ikkinchi tomoni birinchi tomonidan 7 dm qisqa, uchinchi tomoni esa ikkinchi tomonidan 12 dm qisqa. Uchburchakning **perimetrini** toping.


37-dars. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish


1. Berilgan sonlarni **xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi** ko‘rinishida yozing.

a) 45 mln. 4 ming 25 birl.
b) 26 mln. 27 ming 45 birl.
d) 3 mln. 30 ming 824 birl.
e) 3 mln. 14 ming 7 birl.
f) 23 mln. 5 ming 700 birl.
g) 72 mln. 45 ming 45 birl.

Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish ustun ko‘rinishida bajariladi.

1-qadam. Sonlar sinf tagiga sinf, xona tagiga xona qilib yoziladi.
2-qadam. Qo‘shish yoki ayirish bajariladi.





2. Ifodalarning qiymatini **sharhlab** hisoblang.

a) 725 845 + 329 978 – 999 875
b) 3 478 273 – 1 275 456 + 92 405
d) 9 245 + 7 989
e) 12 849 + 7 398

3. Tenglamalarni yeching.

a) $(340\,724 - 339\,224) \cdot x + 23\,784 = 263\,413 - 227\,629$
b) $(125\,828 + 543\,772) : y + 19\,230 = 96\,324 - 75\,894$

4. Ifodaning qiymatini hisoblang.


5 h 38 min + 2 · 1 h 49 min – (4 h 57 min : 3 + 187 min)


5. Masalaga savol tuzing va uni yeching.

Registon maydoniga dushanba kuni 1 300 nafar, seshanba kuni undan 240 nafarga ko‘p, chorshanba kuni esa dushanba kunidagidan 130 nafarga kam sayyoh tashrif buyurdi.


6. Uchburchakning birinchi tomoni 22 dm. Ikkinchi tomoni birinchi tomonidan 1 m 6 dm uzun, uchinchi tomoni esa birinchi va ikkinchi tomonlari yig‘indisidan 3 marta qisqa. Uchburchakning perimetrini toping.


7. a) **22 347 + 45 999 = 68 346** ekanligini bilgan holda qolgan misollarni og‘zaki hisoblang.





b) **87 654 – 39 245 = 48 409** ekanligini bilgan holda qolgan misollarni og‘zaki hisoblang.





8. Agar sayyoh 3 ta do‘ppi sotib olsa, unda 70 ming so‘m pul qoladi. Agar u 5 ta do‘ppi sotib olmoqchi bo‘lsa, unga 10 ming so‘m yetmaydi. Bitta do‘ppi qancha turadi?

9. Ifodalarning qiymatini toping.

a) (47 816 + 112 812) : 52 + (27 249 + 18 615) : 84

b) (199 185 – 119 · 805) : (148 + 8 536 : 88)

10. O‘zbekiston tarixi muzeyiga yanvar oyida 23 756 nafar, fevral oyida undan 4 378 nafarga kam, mart oyida esa yanvar oyidagidan 1 149 nafar ko‘p o‘quvchi tashrif buyurgan. Uch oy davomida muzeyga jami necha nafar o‘quvchi tashrif buyurgan?

38-dars. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish

1. Sonlarni o‘qing. Ularda nechta to‘liq **yuzlik**, **o‘nlik** va **birlik** bor? Har bir son uchun oldin va keyin keladigan sonlarni ayting.

7 055 929 19 202 719 4 509 199

2. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Nimani sezdingiz?

90 · 1 000	580 · 100	305 · 1 000
10 000 · 28	621 · 1 000	100 000 · 293
50 · 3 000	300 · 70	6 000 · 3 000

3. Berilgan sonlardan foydalanib, **to‘rtta tenglik** tuzing:

a) 6 400, 800, 8 b) 26 703, 54 291, 27 588

4. 12 kun davomida usta 420 ta detal, uning shogirdi esa 324 ta detal tayyorladi. Kimning mehnat unumdorligi yuqori va qanchaga yuqori?

	mehnat unumdorligi (*v*)	vaqt (*t*)	ish (*A*)
usta	1 kunda ? ta detal	12 kun	420 ta detal
shogird	1 kunda ? ta detal	12 kun	324 ta detal

1 kunda ? ta detal ko‘p

5. **Eng kichik o‘lchov birligiga** keltiring va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 5 km 25 m + 25 m 4 dm – 3 km 5 m 7 dm
b) 4 m 25 cm + 24 dm 12 cm – 5 m 12 dm

6. Tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lishi uchun yulduzchalar o‘rniga qanday **raqamlar** qo‘yilishi kerak?

2 589 < 2 5 * 9	7 89 * < 7 891	63 * 95 > 63 885
9 998 > 9 99 *	10 000 > * 999	57 823 < 5 * 829

7. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) 235 ta minglik 620 ta birlikni 15 ta minglik 13 ta birlikka orttirish.

b) 2 ta o‘nlik 5 ta birlikni 7 ta o‘nlikka ko‘paytirish.

8. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to‘g‘ri hisoblang.

52964 + 26485 = 78529	75369 + 65847 = 130207	956325 − 25847 = 956311	265311 − 65487 = 190724

9. Tenglamalarni yeching.

a) $x + 45\,000 + 21\,378 = 98\,206$ b) $y - 38 \cdot 702 = 56\,000$

10. Ifodalarning qiymatini toping.


a) $23\,475\,806 - 3\,425\,673 \cdot 3 + 845\,275 : 5$

b) $567\,849 \cdot 23 - 23\,426 \cdot 18 + 25\,648 : 56 : 2$

11. Amallarni bajaring.

$56\,429 \cdot 924$	$293\,409 + 846\,953$
$36\,845 - 9\,976$	$621\,810 : 987$
$379\,008 : 423$	$58\,925 \cdot 293$

12. Vitraj san’ati ko‘rgazmasi uch kun davom etdi. Unga birinchi kun 1 417 nafar, ikkinchi kun esa undan 218 nafar ko‘p kishi tashrif buyurdi. Agar shu uch kun davomida ko‘rgazmaga jami 4 924 kishi tashrif buyurgan bo‘lsa, uchinchi kun unga necha kishi tashrif buyurgan?



39-dars. Ko‘p xonali sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish

1. Sonlarni o‘qing. **Sonlarning xonalarini** ayting. Qaysi son eng kichik? Qaysi biri eng katta?


155 035 | 551 507 | 550 650 | 55 200


2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

45 × ? → 90 : ? → 30 ×70→ ? : 100 → ?

95 : 5 → ? × 2 → ? + 42 → ? : 8 → ?

Ko‘p xonali sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish namunaga ko‘ra bajariladi:






Yodda tuting!

Agar raqam pastga tushirilgandan keyin ham to‘liqsiz bo‘linuvchi bo‘luvchidan kichik bo‘lsa, quyidagilar bajariladi:

a) bo‘linmaga 0 raqami yoziladi;

b) bo‘linuvchining navbatdagi raqami pastga tushiriladi va bo‘lish davom ettiriladi.



3. Bo‘lishni **burchak usulida** bajaring.

4 072 : 4	16 206 : 6	240 288 : 8
2 763 : 9	10 075 : 5	282 828 : 7

4. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

5 849 · 247 + 14 997 — 544 428 : 639 – 499

5 975 · 356 – 2 983 — 607 026 : 894 – 246

5. **Santimetrlarda** ifodalang.

a) 13 dm 4 cm — d) 5 dm 8 cm 40 mm

b) 2 m 7 dm 6 cm — e) 2 m 12 dm 35 cm

6. Matn teruvchi 48 sahifa matn terdi. Har bir sahifaga 1 800 ta belgi (harflar, simvollar va bo‘sh joylar) sig‘adi. U jami nechta belgi tergan? Matn teruvchi bir kunda 12 sahifa matn tera oladi. Barcha matnni terishga necha kun ketgan?

7. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 9 m, eni esa 3 m 6 dm. Uning **perimetri** va **yuzini** toping.

8. Bir tokchada 18 ta kitob bor. Agar unga yana 4 ta kitob qo‘yilsa, undagi kitoblar soni boshqa tokchadagidan 2 marta ko‘p bo‘ladi. Boshqa tokchada nechta kitob bor?



9. Amallarni bajaring.

5 105 : 5	81 081 : 9	302 008 : 4	346 · 49
3 606 : 6	13 002 : 3	500 072 : 8	786 · 14

10. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 148 mm, eni esa undan 4 cm qisqa. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzini toping.

40-dars. Ko‘p xonali sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish


1. Sonlarni **xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi** ko‘rinishida ifodalang.

30 600 870 320 3 000 459 9 000 009

2. Tenglamalarni yeching.

a) $x - 40 - 700 = 3\,000$ b) $b - 20 - 600 - 8\,000 = 300\,000$

Agar bo‘linuvchi nol(lar) bilan tugasa, qoldiq 0 bo‘lguncha bo‘lish davom ettiriladi. Shundan so‘ng qolgan nollar bo‘linmaga tushiriladi.



3. Bo‘lishni **sharhlab, burchak usulida** bajaring.

456 000 : 6 543 000 : 3 17 800 : 2

4. A’lo darajadagi mehnati uchun kompaniya 6 nafar xodimga 8 220 000 so‘m ajratdi. Agar bu pul ular o‘rtasida teng taqsimlangan bo‘lsa, har bir xodim necha so‘mdan olgan?

5. Besh kishidan iborat quruvchilar brigadasi har bir soatlik ishi uchun 178 000 so‘m oladi. Agar ish smenasi 8 soat davom etsa, smena oxirida har bir quruvchi necha so‘m oladi?

6. Anora tasmalarga 128 000 so‘m sarfladi va shu tasmalardan 8 ta soch to‘g‘nag‘ichi hamda 12 ta kitob xatcho‘pi tayyorladi. U har bir soch to‘g‘nag‘ichini 20 000 so‘mdan, har bir kitob xatcho‘pini esa 13 000 so‘mdan sotdi. Anora qancha pul ishlab topgan?



7. Ifodalarning qiymatini **qulay usulda** hisoblang va ularni taqqoslang.

$7 \cdot 100 \square 8 \cdot 10 \cdot 10$
$20 \cdot 6 \square 7 \cdot 2 \cdot 5$
$8 \cdot 4 \cdot 5 \square 2 \cdot 9 \cdot 5$
$9 \cdot 10 + 3 \square 7 \cdot 10 + 9$
$6 \cdot 10 + 4 \square 8 + 4 \cdot 10$
$(9 + 1) \cdot 10 \square 8 \cdot 10 + 2 \cdot 10$

8. Tenglamalarni yeching.

$6\,475 : y + 5 = 13 \cdot 100$
$y - 525 \cdot 37 = 2\,738$

9. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $(25\,605 : 45 + 30\,084 : 69) \cdot 12$
b) $3\,485\,700 \cdot 5 \cdot 7 - 1\,345\,720 : 5$


10. Buxgalteriya daftarining 68- va 93-betlari orasidagi varaqlar yo‘qolgan. Agar bir varaqda ikki bet bo‘lsa, nechta varaq yo‘qolgan?



11. Bo‘lishni **burchak usulida** bajaring.

$87\,000 : 3$
$12\,900 : 6$
$328\,000 : 4$
$1\,550 : 5$
$648\,000 : 8$
$1\,680\,000 : 7$

12. Firma yanvar oyida 135 000 000 so‘m, fevral oyida undan 5 marta kam, mart oyida esa fevral oyidagidan 3 marta ko‘p daromad oldi. Firma ushbu uch oy davomida jami qancha daromad olgan?




41-dars. Misol va masalalar yechish

1. **9 ga karrali** sonlarni toping. Ularni o‘sish tartibida joylashtiring. Mos harflardan so‘z hosil qiling. Bu so‘z nimani anglatadi?

T	A	E	I	N	O	R	S
378 810	217 440	479 011	516 888	912 465	678 573	181 314	403 002

2. Har bir oziq-ovqat mahsuloti bizga energiya beradi. Ifodalarning qiymatini hisoblang va bu mahsulotlar necha kilokaloriya energiya berishini aniqlang.



chala pishirilgan tuxum
10 175 – (458 + 167) · 16



tort
43 578 : 9 – 55 · 79



sho‘rva
18 · 307 – 5 231

3. Ushbu mahsulotlarning massasini aniqlashga yordam bering. Qopdagi kartoshkaning massasi qadoqdagi shakarning massasidan qancha ko‘p? Mahsulotlarning umumiy massasini toping.







4. Supermarketda ona 3 kg bodringni 48 000 so‘mga va 4 kg pomidorni 68 000 so‘mga sotib oldi. 1 kg bodring 1 kg pomidordan necha so‘m arzon?

5. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarni **kilogrammlarda** ifodalang.

a) (1 t 2 q 45 kg + 6 t 107 kg) : 8

b) (56 q – 4 t 7 q) · 5


d) 9 700 g + 8 600 g – 5 300 g

6. Tenglamalarni yeching.

a) x + 650 = 170 · 20

b) 6 000 – y = 5 400 : 9

7. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to‘g‘ri hisoblang.



8. Qutida 50 tadan ortiq bo‘lmagan konfet bor. Ularni 2 nafar, 3 nafar va 4 nafar bolaga teng taqsimlash mumkin, ammo 5 nafar bolaga taqsimlanganda 3 ta konfet ortib qoladi. Qutida nechta konfet bor?

9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarni **kilogrammlarda** ifodalang.

a) (7 t 4 q 51 kg + 2 t 431 kg) : 6

b) (47 q – 2 t 5 q) · 3 + 2 q 43 kg

d) 6 549 g + 3 451 g – 20 000 g : 10

e) (16 136 g – 8 764 g + 12 628 g) : 2

10. Salat tayyorlaymiz. Bir porsiya uchun quyidagilar kerak bo‘ladi:



200 g | 160 g | 160 g | 3 ta tuxum | 90 g

Uch porsiya salatning massasi qancha bo‘ladi?
(Bitta tuxumning o‘rtacha massasi 60 g.)

44-dars. Misol va masalalar yechish

1. Eng katta qiymatli ifodani toping va o‘quvchilar orasida eng ommabop sport turini bilib oling.

36 000 : 4 – 7 200





50 · 140 – 4 800

8 400 : 12 + 1 600





70 · 40 – 300

2. **[12, 18, 28, 31, 34, 42, 60, 64, 67, 76]** natural sonlar to‘plami orasidan quyidagilarni tanlang:

a) **juft** sonlar;
b) **4 ga** bo‘linadigan sonlar;
d) **300 soni** bo‘linadigan sonlar;
e) **60** sonining bo‘luvchilari;
f) **6 ga karrali** sonlar.

3. Tasdiqlarning **to‘g‘ri** yoki **noto‘g‘riligini** tekshiring.

a) 58 045 : 65 + 89 · (1 057 – 1 034) soni 780 : 5 – 146 ga karrali.

b) 789 · 321 : 3 – 81 003 soni 2 889 : 963 ga karrali.

4. Savollarga javob bering.

a) 45 sonining nechta bo‘luvchisi bor? Ularni o‘sish tartibida ayting.
b) 189 999 sonidan keyin qaysi son keladi?
d) Qaysi sonning bo‘luvchilari ko‘proq: 25 soninikimi yoki 30 soninikimi?
e) 1 000 000 sonidan oldin qaysi son keladi?

5. Bir oromgohga har birida 45 nafardan bola bo‘lgan 12 ta avtobus, ikkinchi oromgohga esa har birida 39 nafardan bola bo‘lgan 13 ta avtobus keldi. Birinchi oromgohga ikkinchisidagidan necha nafar ko‘p bola kelgan?

6. Tenglamalarni yeching.

a) $(845 + y) : 25 = 2\,242 : 38$


b) $(y - 563) : 28 = 1\,000 : 40$

d) $(900 - y) : 5 = 100$


e) $(y - 245) \cdot 3 = 1\,500$

7. Sxemalarga doir ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a)



b)



8. To‘rt nafar do‘st ko'p qavatli uyning ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi qavatlarida yashaydi.

- Aziz Doniyordan yuqorida yashaydi.
- Kamron Jasur va Azizdan pastda yashaydi.
- Doniyor ikkinchi qavatda yashaydi.
- Jasur beshinchi qavatda yashaydi.

Aziz va Kamron qaysi qavatlarda yashaydi?



9. Tenglamalarni yeching.

a) $(y - 145) : 5 + 458 = 500 - 2$

b) $14\,336 : y + 278 = 167 \cdot 2$

10. Aydarko‘l ko‘liga sayohat narxi 1 830 000 so‘mni tashkil etadi. Urungach ko‘liga sayohat narxi esa undan 2 marta arzon. Uch kishidan iborat oila Aydarko‘l ko‘liga, besh kishidan iborat oila esa Urungach ko‘liga borishni rejalashtirmoqda. Qaysi oila ko‘p va qancha ko‘p to‘laydi?